

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI KAFEDRASI**

"AVARIYA-QUTQARUV ISHLARI"

fanidan

**O' QUV – USLUBIY
MAJMUA**

Bilim sohasi:	600 000 – Xizmatlar
Ta'lism sohasi:	640 000 – Hayot faoliyat xavfsizligi
Ta'lism yo'nalishi:	5640 100 – Hayotiy faoliyat xavfsizligi

Namangan - 2021

Ushbu ma’ruzalar matni O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligida № BD 5640100-3.06 raqam bilan ro’yxatga olingan va 2019-yil 4-oktabrdagi 892-sonli buyrug’ining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan na’munaviy fan dasturi asosida tuzilgan.

Ma’ruzalar matni sarlavha, mundarija, asosiy matn, nazorat uchun savollar va foydalanilgan adabiyotlardan tashkil topgan. Asosiy matnda talabalar o’zlashtirishi lozim bo’lgan zaruriy ma’lumotlar berilgan bo’lib, Avariya – qutqaruv ishlari kursidan talabalar egallashi lozim bo’lgan bilim va ko’nikmalarini o’z ichiga qamrab olgan bo’lib fanni o’rganishlarida nazariy jihatdan yordam ko’rsatadi.

Tuzuvchilar:

A.B.Nabiyev Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasini mudiri, PhD

Taqrizchi:

I.T.Uluhanov Texnologik ta’lim kafedrasini dotsenti, f.-m.f.n.

“Avariya –qutqaruv ishlari” fanidan ma’ruzalar matni NamDU Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasining 20__ yil __ -_____- sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

A.Nabiyev

MUNDARIJA

1. O'quv materiallari:

- 1.1. Ma'ruza mashg'uotlari.....
- 1.2. Seminar mashg'uotlari.....
- 1.3. Amaliy mashg'uotlari.....

2. Mustaqil ta'lim mashg'uotlari.....

3. Glossariy.....

4. Ilovalar:

- 4.1. Namunaviy fan dasturi.....
- 4.2. Ishchi o'quv dasturi.....
- 4.3. Tarqatma materiallar.....
- 4.4. Testlar.....
- 4.5. Baholash mezoni.....
- 4.6. Oraliq nazorati savollari.....
- 4.7. Umumiy savollar.....
- 4.8. Foydalilanigan adabiyotlar.....

AVARIYA-QUTQARUV ISHLARI

fanidan

MA'RUZALAR MATNI

1-ma’ruza. Avariya - qutqaruv ishlari fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari. Avariya-qutqaruv ishlarini o’tkazishning huquqiy asoslari

O’quv savollari:

1. Favqulodda vaziyatlarning avvalgi va hozirgi zamondagi yuz berishini tahlillari.
2. Favqulodda vaziyatlarda avariya qutqaruv ishlarini olib borishda hayot faoliyati xavfsizligi yo’nalishi bo'yicha tayyorlanadigan mutaxassislar oldidagi vazifalar.
3. Fanning maqsadi va vazifalari. Fan dasturining mazmuni va talablari.

Insoniyat rivojlanishining tarixi yer kurrasida turli xildagi ofat, talofat, katastrofalar kabi voqealarni, hodisalar bilan bog’lik. Ushbu voqealar yuz bergan hududlardagi vaziyat, ya’ni tabiiy ofatlar, turli avariyalarni yildan yilga ko’payib, qamrovi kengayib borayotganligini guvoxi bo’lmoqdamiz. Bunday salbiy hodisalarni o’rganish, bashoratlash va oldini olish, ogoxlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish, turli ofat-talofatlar keltiradigan iqtisodiy zararni va insonlar o’rtasidagi talofat, shikastlanish ko’rsatgichlarini kamayishiga olib keladi.

Bu esa yashash sharoitida inson bilan muhit o’rtasidagi muvozanatni saqlash muammosini echish, buning uchun esa zaruriy me’yoriy-xuquqiy asoslar, maxsus ilmiy izlanishlar olib borilishi lozim ekanligini hayot tajribasi ko’rsatmoqda.

Respublikamizda, bu borada ya’ni, favqulodda vaziyatlarda, fuqaro muhofazasi sohasida qator qonun va xujjalarni ishlab chiqilmoqda. Binobarin, aholi va hududlarni turli xil favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish o’ta muhim va dolzarb masala ekanligini hisobga olgan holda, 1996 yili O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalaridan aholi xayoti, sog’lig’i, moddiy va madaniy boyliklarni mamlakatimiz hududida yuz berishi ehtimoli bo’lgan favqulodda vaziyatlar (FV) larda muxofaza qilishdan iborat. Ayniqsa favqulodda vaziyatlar yuz bergan taqdirda, avariya-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yil sayin ko’payib borayotgan FVlar oqibatini yumshatish, zararlanish hududlarida inson hayoti va sog’lig’ini saqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Qo’ylgan vazifalarni samarali bajarish fuqaro muhofazasi (FM) sohasida malakali kadrlar mavjudligi bilan bevosita bog’liqdir. Xozirgi kunda turkum oliy o’quv yurtlarida xayot faoliyati xavfsizligi (XFX) yo’nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda va zaruriy o’quv uslubiy baza shakllantirilib, zamonaviy va yangi sharoitlarni jamlagan holda, tobora takomillashtirilmoqda. Ushbu o’quv qo’llanma avariya qutqaruv ishlarni olib borish, favqulodda vaziyatlar zararini imkon qadar kamaytirish, zararlanish hududlarida insonlarni qutqarish kabi masalalar va ularning echimlari bilan tanishtiradi. FVdagi sharoitda insonlarni qutqarish va boshqa shoshilinch tiklash ishlarni amalga oshirish bo'yicha zaruriy ko’nikmalarni beradi.

Er yuzidagi xayot tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki, FVlar natijasida insonlarga, tabiatga, atrof-muhitga juda katta moddiy, ma’naviy zarar yetkaziladi. FVlarning

avvalgi va xozirgi zamondagi yuz berishini tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, ularning soni tobora oshib bormoqda. FVlarning namoyon bo'lish xususiyatlari esa dahshatli tus olmoqda. Masalan, 2011 yil mart oyida Yaponiyada zilzila yuz berdi va uning oqibatida chamasi 10 metrli suv to'lqini qirg'oqqa chiqdi. Ofat natijasida esa minglab uylar buzildi, 30 ming odam nobud bo'ldi, va oilalar uy - joysiz qoldi. Ushbu zilzila boshqa bir favqulodda vaziyat - atom elektrostansiyasida katostrofani yuzaga keltirdi. SHuningdek, 1995 yil 27 mayda Rossiya, Neftegorsk shaxrida 8 balli zilzila oqibatida 95%dan ortiq binolar vayron bo'ldi, ko'plab odamlar nobud bo'ldi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Dunyo statistik ma'lumotlariga ko'ra, FVlar yuz berish hududlari bo'yicha Osiyoda 39%, Amerikada 26%, Afrika va Evropada 13%, Avstraliya va Okeaniyada 9%, boshqa hududlarda 13% ni tashkil etadi. Yer yuzasida yuz berayotgan tabiiy FV lar quyidagicha tartibda joylashgan: tayfunlar 34%, toshqinlar 32%, zilzila 13%, qurg'oqchilik 9% va boshqa ofatlar 12 % atrofida ekanligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan. FV ayrim mamlakatlarning iqtisodiyotiga juda katta zarar etkazishi bilan birga, insonlarning sog'lig'ini yo'qotishi, hayotiga zomin bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

XXI asrga kelib, sayyoramizda tabiiy jarayonlar nihoyatda keskinlashib bormoqda. Bu holni nafaqat ahyon-ahyonda sodir bo'layotgan zilzilalar, balki Sel, ko'chki va boshqa turdag'i tabiiy ofatlarning ko'payib borayotgani bilan izohlash mumkin. Yurtimiz O'zbekistonda ham turli xildagi FVlar yuz berishi ehtimoldan holi emas. O'zbekiston hududida sodir bo'lish ehtimoli bo'lgan tabiiy ofatlardan: zilzila, Sel, toshqin, ko'chkilar ko'proq uchraydi. Masalan, zilzila Respublikamiz hududi seysmik faol 5-9 balli zonada joylashgan budib, unda Andijon 9 ball, Toshkent, Samarkand Farg'ona – 8 ball, Buxoro, Guliston, Jizzax, Qarshi – 7 balli zilzila yuz berishi ehtimoli. Sel xodisasi – Toshkent, Samarkand, Qashqadaryo viloyatlari va Farg'ona viloyatining tog'li hududlarida ko'proq uchraydi. Toshqin – mamlakatimiz hududida joylashgan daryolar, ko'llar, suv omborlari, yirik gidroTexnik inshootlar joylashgan, ya'ni suv xavzalari atrofidagi zonalarda sodir bo'ladi. Ko'chki jarayoni tarqalgan hududlar Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Namangan viloyatlaridagi zonalarni misol keltirish mumkin.

Hozirgi paytda Respublikamiz hududida muhum ahamiyatga ega bo'lgan yirik iqtisodiyot ob'ektlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bular, katta suv omborlari: Toshkent, CHorvoq Andijon va boshqalar; gaz va neft mahsulotlarini qayta ishslash ob'ektlari: Buxoro neftni qayta ishslash zavodi, Muborak gaz; energetika ob'ektlari; avtomobil sanoati ob'ektlari Asaka, Samarqand va boshqalar. SHuningdek, hozirgi kunda kimyo sanoatida 200 dan ziyod kimyoviy inshootlar faoliyat olib bormoqda. «O'zbekkimyosanoat» korxonalari: Qo'qon, CHirchiq, Olmaliq, Samarqand, Buxoro, Navoiy shaharlarida joylashgan. Kimyoviy moddalardan foydalaniladigan O'zqishloqho'jalik, «O'zgo'shtsut» muassasalari, Bekobod metallurgiya kombinati va boshqa ko'pgina korxonalardir. Bundan tashqari, havo, transport, temiryo'l, avtomobil, metropoliten transport tizimlari ham keng miqyosda rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyot ob'ektlarida potensial texnogen FV lar manbasidir.

Yuqorida keltirilgan tabiiy ofatlar, hududimizda joylashgan iqtisodiyot ob'ektlarida o'ziga xos, turli tusdagi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelib, sodir bo'lgudek bo'lsa, aholi xavfsizligi, inson salomatligini ta'minlash o'ta muxim va dolzarb masalalardan biriga aylanadi.

Hozirgi sharoitda mamlakatimiz aholisini va iqtisodiyot ob'ektlarni muxofaza qilishni yuksak darajaga ko'tarish, ularni turli falokatlardan saqlab qolish borasidagi ishlar, davlat miqyosida olib borilayotgan tadbirlar qatorida aloxida o'rinni egallaydi. SHunday ekan, mamlakatimizda mazkur masala bilan maxsus shug'ullanuvchi tashkilot Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) faoliyat olib bormoqda. Uning asosiy vazifasi favqulodda vaziyatlarni oldini olish bilan bir qatorda, yuz bergan taqdirda favqulotda vaziyatlarni oqibatlarini bartaraf zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq. Ayniqsa favqulodda vaziyatlarni oqibatlarini bartaraf etishda avariya qutqaruv ishlarini qisqa muddatlarda tezkor o'tkazilishi birlamchi vaziyatlarga kiradi.

Favqulodda vaziyatlarda avariya qutqaruv ishlarini olib borishda, hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan mutaxassislar oldiga ushbu vazifalarini bajarishda, quyidagi masalalarni, o'z vaqtida harakat qilish, chora tadbirlarni tezkor amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarda insonlarni hayoti, sog'lig'ini saqlab qolish, Favqulodda vaziyatlar zararini kamaytirish va oqibatini bartaraf etish ishlarini amalga oshirilishi avariya qutqaruv ishlari (AKI)ni muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Soha mutaxassislari quyidagi ishlarni amalga oshirishlari zarur bo'ladi:

- favqulodda vaziyatga tezkor kirishish, favqulodda vaziyatlarni cheklash va oqibatlarini bartaraf etishda samarali harakatlarga shay turish;
- razvedka o'tkazish, vaziyatni baholash va yuqori tashkilotlarga tezkor ma'lumot yuborish;
- jarohatlanganlarni, moddiy boyliklarni qidirib topish, qidiruv-qutqaruv ishlarni o'tkazish va shu kabilar;

Qutqarish ishlarining mazmuni quyidagicha:

- tuzilmalarning harakat yo'nalishlari va ish uchastkalarini qidirish;
- tadbirlarni amalga oshirish uchastkalarida va ularga o'tish yo'llarida yong'inning kengayishini oldini olish va uni o'chirish;
- buyumlar, qulagan va yonayotgan binolarda, gaz va tutun bosgan xonalardan shikastlanganlarni qidirish va olib chiqish;
- buzilgan, shikastlangan, ustini uyumlar bosib qolgan inshootlarni ochish va ulardagi odamlarni qutqarish;
- shakastlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, ularni davolash muassasalariga olib borish;
- odamlarni kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda (KTZM) bilan zararlangan xavfli joylardan, suv bosadigan zonalardan xavfsiz joylarga olib chiqish va shu kabi ishlar.

Qutqaruv hamda shoshilinch avariya-tiklash ishlari murakkab sharoitlarda vayronalarda, kuchli yong'inxarda, yer qimirlaganda, radioaktiv, ximiyaviy va bakteriologik zararlanganda, suv toshqini, Sel bosgan hududlarda amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot ob'ektlarda tabiiy ofatlar (zilzilalar, to'fonlar, suv toshqinlar, tog' ko'chkilari, o'rmondag'i yong'inlar va boshqalar), har xil tabiiy va iqlim sharoitlarida, ulardan kelib chiqqan asoratlarni bartaraf qilish masalalari dolzarb hisoblanadi va shu bilan bir qatorda kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordamni ko'rsatishdan iborat. Qutqarish va boshka kechiktirib bo'lmaydigan ishlar quyidagilardan iborat:

1. Odamlarni qutqarish va shikastlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish.
2. Yong'inlar, falokatlarning kengayishiga yo'l qo'ymaslik va kommunal energetika hamda texnologiya tarmoqlaridagi avariyalarni bartaraf etish.
3. Iqtisodiyot ob'ektlarda bundan keyingi bo'ladiqan tiklash ishlarini o'tkazish uchun sharoitlar yaratish va boshqalar.

Avariya qutqaruv ishlari va tabiiy ofatlarni kelib chiqish sabablarini, nazariy masalalarni va amalda ularni oldini olish, qutqaruv ishlarini va avariyalardan keyin tiklash ishlarini olib borish ishlarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasalarida **5640100 -Xayotiy faoliyat xavfsizligi** ta'lim yo'naliishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrular tayyorlash o'quv rejasida "Avariya –qutqaruv ishlari" fani ixtisoslik fanlari tarkibiga kiritilgan.

"Avariya – qutqaruv ishlari" fani avariylar va tabiiy ofatlar -zilzilalar, suv toshqinlari, to'fonlar, tog' ko'chkilari, yong'inlar va boshqalar sodir bo'lganda, ulardan kelib chiqqan asoratlarni bartaraf qilish, har xil noxush tabiiy va iqlimi sharoitlarda, iqtisodiyot ob'ektlarini barqaror ishlashini ta'minlash masalalarini o'rganadi. SHu bilan bir qatorda xavf-xatarlarni oldini olish chora-tadbirlarini olib borish, aholiga kechiktirib bo'lmaydigan yordamlarni ko'rsatish bo'yicha bilimlarni talabalarga o'rgatishdan iborat.

Ushbu dastur avariyalarni va tabiiy ofatlarni oldini olish, ular bilan kurashish va salbiy oqibatlarini kamaytirish tadbirlari, ular sodir bo'lganda muxandislik-qutqaruv ishlarini va avariyanidan keyingi tiklash ishlarini olib borish masalalarini qamrab olgan.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fan o'qitilishidan maqsad - talabalarni texnogen va tabiiy ofatlarni tahlil qilish, ularni oldini olish va avariylar sodir bo'lganda tezkor yordam va qutqaruv ishlarini tashkil qilish va olib borilishiga ko'maklashishga o'rgatish, yo'naliishi ta'lim standartida talab qilingan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar darajasini ta'minlashdan iborat.

O'quv fanini o'rganishning asosiy vazifalari talabalarga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan halokatlar va tabiiy ofatlarni o'rganish, avariya holatlarini aniqlash, baholash, tasniflash va ularni oldini olish yo'llarini o'rgatish, ularda halokatli holatlarda qutqaruv va evakuatsiya ishlarini, qutqaruv va tiklash ishlarini tashkillashtirish tajribasini shakllantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Ushbu vazifalardan kelib chiqib "Avariya-qutqaruv ishlari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- ushbu fanning kasbiy faoliyatidagi o'mni;
- qutqaruv xizmatining zamonaviy vositalari;

- avariya qutqaruv xizmati;
- fuqaro muhofazasi tizimi va tuzilmalari **haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak;**
- avariya-qutqaruv xizmati va fuqaro muhofazasi bo'limi zimmasidagi vazifalari;
- iqtisodiyot ob'ektlaridagi avariylar va ularni atrof-muhitga ta'siri;
- qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan avariya tiklash ishlarini olib borish va faoliyat xavfsizligini ta'minlash usullari;
 - ko'ngilli qutqaruvchilar drujinalari faoliyatini shakllantirish qoidalari;
 - avariya -qutqaruv ishlarini bajarishda jabrlanganlarni saralash bosqichlari;
 - tabiiy ofatlarni o'rganish (zilzila, tog' ko'chishi va boshqa) va ularning talofatlarini kamaytirish yo'llarini;
- avariya qutqaruv ishlari tarkibi va ketma-ketligini **bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;**
 - ishchi xodimlar va aholi bilan tushuntirish ishlarini tashkil qilish;
 - birinchi navbatda avariya -qutqaruv ishlarini olib borishni tashkil qilish;
 - favqulodda hodisalar hududida qidiruv va yordam ko'rsatishni tashkil qilish;
 - shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish;
 - avariya-qutqaruv ishlarini iqtisodiyot tarmoqlarining maxsus sharoitlardagi ob'ektlarida portlovchi moddalar, radioaktiv va zaharli himoyalanish ;
 - avariya-qutqaruv ishlarini neft va gaz olishda, neft-kimyo sanoatida va transport vositalriad olib borish;
- zararlantirish ishlarini tashkil qilish **ko'nikmalari bo'yicha tushunchaga ega bo'lishi kerak.**

Qo'yilgan vazifalar o'qish jarayonida talabalarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi, adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi va o'qituvchi kuzatuvida mustaqil ta'lim olishi bilan amalga oshadi.

Fani ishlab chiqarishdagi o'rni

Avariya-qutqaruv ishlari fanini o'rganish - favqulodda vaziyatlarda iqtisodiyot ob'ektlarida qurbonlar va jarohatlanganlar sonini kamaytirishga, ob'ektlarni bardaror faoliyat ko'rsatishlariga oid bilimlarni berishga qaratilgan. Iqtisodiyot ob'ektlarida fuqaro muhofazasi hizmati xodimlari avariya qutqaruv ishlari bo'yicha maxsus tadbirlar rejasini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar. SHu boisdan fan **hayotiy faoliyat xavfsizligi yo'nalishi talabalari uchun muhim o'rinni tutadi.**

Fanni o'qitishdagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning avariya-qutqaruv ishlari fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur fanini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llanilish nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- fanning asosiy tushunchalarini o'rganishga bag'ishlangan ma'ruza darslarida muammoli ta'lim texnologiyasidan;
- amaliy mashg'ulotlarda faoliyatli yondashuv texnologiyasidan;

-amaliy mashg'ulotlarda kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum kabi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Fanni o'qitishda quyidagi asosiy kontseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim - ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyixalashtirilayotganda, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, kelgusidagi mutaxassislik faoliyatini bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishini nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv - ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'ginlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligini ta'minlaydi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv-ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuvo'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyatni kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'lim-demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va yerishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga ehtiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirish taqozo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlariga va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga qaratilgan holda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rinn ajratiladi.

Dasturaviy materiallarni o'zlashtirish to'rt xil:

- muammoli tasnidagi mavzular bo'yicha;
- mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;
- ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
- ma'ruzalarni interfaol usulda o'qish yo'li bilan;
- mustaqil ta'lim olish va ishlash, kolleviumlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashini namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilgan ma'lumotlarni to'g'ri mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

Dastur asosida talabalar bilimini aniqlash reyting nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilish asosida amalga oshadi.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish, darslik, o'quv qo'llanma va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalaridan, ma'lumotlar bazasidan, kompyuter, elektron plakatlar va internet tarmog'idan foydalaniladi.

Nazorat savollari;

1. Fanning oldiga qanday vazifalar qo'yilgan?
2. Fan bo'yicha qo'yiladigan talablarni tushuntiring.

2-ma’ruza Qutqaruv ishlaring turlari, favqulodda vaziyatlarga kuch va vositlarni tayyorlash bo'yicha tadbirlarni rejallashtirish va ulardan foydalanish
O'quv savollari:

1. Fuqaro muxofazasining me'yoriy-xuquqiy asoslari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida Davlat standartlari har qanday favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish uchun zaruriy kuch va vositalar zarur bo'ladi. Favqulodda vaziyatlar yuz bergandan so'ng oqibatlarini bartaraf etishda, sodir bo'lgan favqulodda vaziyat o'chog'i holatiga qarab maxsus kuch vositalar jalb qilinadi. Bunday hollarda olib boriladigan ishlar, favqulodda vaziyatning vaqt, uning ta'sir o'chog'i, aholi yashash punkti va boshqa hususiyatlariga alohida e'tibor berilib, tezkorlik bilan amalga oshiriladi.

O'tgan asrda xam mavjud bo'lib, 60-yillari faoliyat mudofaa tizimi bilan bog'liq bo'lgan fuqaro muxofazasi tizimi uning vazifasi: tinchlik va urush xolatida; - mamlakat aholisini kirg'in qurollari va hujum vositalaridan himoya qilish; urush sharoitida xalq xo'jaligi ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash; - xalokat o'choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini samarali amalga oshirishdan iborat bo'lgan, keyinchalik hayot tajribasiga aholi hayotiga faqat qirg'in qurollari emas, balki boshqa xavf-xatarlar, turli tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatlari favqulodda vaziyatlardir.

Bunday vaziyatlar odamlar uchungina xavfli bo'lmay, balki iqtisodiyot ob'ektlarni ishdan chiqarishga, zararlanishga olib keladi. Bunday xollarni yildan-yilga ko'payib borishi fuqaro muxofazasi tizimini rivojlantirilishi tashkiliy jixatdan keng qamrovli bo'lishi lozimligini ko'rsatib berdi. Bunday tizim aholini favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish, qutqaruv ishlarini o'tkazib tabiiy ofatlar va boshqa xavf xatarlarni o'rganish qisqa, o'rta va uzoq muddatli bashoratlash ishlarini tashkil qilishi, monitoring tizimini, aholi tayyorligini amalga oshirish masalalari hal qilinishi kerak. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tomonidan tabiiy ofatlar va boshqa falokatlardan Respublika aholisini va hududlarini muhofaza qilish borasida masalalarni echish uchun talay vazifalar qo'yilgan. FVV faoliyati va muhofaza tizimidagi barcha kuch va vositalar vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda qutqarish va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlar va tashkil qilish ishlariga yo'naltirilgan.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish FV jixatlarini o'rganish va asosiy chorag' tadbirlarni amalga oshirishi bilan bog'liq:

Avvalo, favqulodda vaziyat – bu odamlar qurban bo'lishi, ularning sog'ligi yoki atrof-tabiiy muhitga zarar etishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar xayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, xalokat, xavfli tabiiy xodisa yoki boshka tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat.

Bunday vaziyatlarda

A) Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish - favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralar, usullari, vositalari tizimi, sa'yi-harakatlari majmui.

B) Favqulodda vaziyatlarning oldini olish - oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergen taqdirda esa odamlar sog'ligini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

V) Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkazilib, odamlar xayoti va sog'ligini saqlash, atrof tabiiy muhitga etkaziladigan zarar va moddiy talofatlar mikdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergen zonalarni xalqaga olib, xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlarni kompleksiga qaratilgan sa'yi harakat va tadbirlar kompleksidir. Ushbu ishlarni amalga oshirish fuqaro muxofazasi sohasida qabul qilingan me'yoriy-xuquqiy xujjatlari asosida olib boriladi.

2.1. Fuqaro muxofazasining me'yoriy-xuquqiy asoslari

Fuqaro muxofazasining aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasida qabul qilingan muxim xujjatlardan biri - avval Mudofaa vazirligi qoshida fuqaro muxofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so'ngra esa shu boshqarma negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martdag'i PF-1378 Farmoni bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo'ldi. Vazirlik faoliyat yurita boshlagandan so'ng aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasining xuquqiy asosini tashkil ztuvchi bir qator qonun, qarorlar va me'yoriy- huquqiy xujjatlar qabul qilindi.

Bular: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy xujjatlar to'plami.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish to'g'risida (1999 yil 20 avgust)gi qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar oqibatida keltiriladigan talofatlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo'yadi.

Fuqaro muxofazasi to'g'risida (2000 yil 26 may)gi- qonun fuqaro muxofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xuquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muxofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

GidroTexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida (1999 yil 20 avgust). Ushbu qonunning maqsadi gidroTexnika inshootlarini loyixalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish, tiklash,

konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni taminlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishikdir.

Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida (2000 yil 31 avgust). Qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar xayoti, sog'ligi va mol-mulki, shunikgdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muxofaza qilishni ta'minlash bilan bog'lik munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida (2000 yil 15 dekabr). Ushbu qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning asosiy vazifasi shaxs, jamiyat va davlatning suverenitet va hududiy yaxlitligini ximoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

Xavfli ishlab chikarish ob'ektlarinnng sanoat xavfsizligi to'g'risida (2006 yil 28 sentyabr). Konunning maqsadi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori:

Toshqinlar, Sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki xodisalar bilan bog'lik favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida (2007 yil 19 fevral, PK,-585-sonli). Toshqinlar, Sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki xodisalari bilan bog'lik favqulodda vaziyatlardan aholi va hududlarni muxofaza qilish bo'yicha ishlarni o'z vaqtida va samarali tashkil etish, shuningdek ularning oqibatlarini tezkorlik bilan bartaraf etish maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari:

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida (1996 yil 11 aprel, 143-sonli). Qarorga «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risida» nizom ilova qilingan. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari, huquqlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilnsh davlat tizimn to'g'risida (1997 yil 23 dekabr, 558-sonli). Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risidagi nizom va uning tuzilmasi tasdiqlangan, vazirlik va idoralarning aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish bo'yicha vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida (1998 yil 7 oktyabr, 427-sonli). Qaror mamlakat aholisi va hududini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan. Karorga «Aholini favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasida, shuningdek favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan utayotgan aholi guruxlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilanishi ilova tarzida keltirilgan.

Tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaznyatlarninx tasnifi to'g'risida (1998 yil 27 oktyabr, 455-sonli). Qaror bilan favqulodda vaziyatlar

vujudga kelish sabablariga kura tasnifi ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar mikdoriga va ko'lamlariga qarab turlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasida odamlar va xayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida (1996 yil 18 yanvar, 32-sonli). Odamlar va xayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurash chora-tadbirlarining samaradorligini oshirish, shuningdek, aholi yashash joylarida it, mushuk va boshka uy xayvonlarini saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida (2003 yil 13 yanvar, 15-sonli). O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar o'tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tartibni muxofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

Favqulodda vaziyatlarni bashoratlash va oldini olish Davlat dasturida tasdiqlash to'g'risida (2007 yil 3 aprel, 71-sonli). Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilingan.

Davlat standartlari:

1."Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Asosiy tushunchalarning atamalari va ta'riflari" (O'zDst 981:2000).

2."Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar" (O'zDst 982:2000).

3. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar. Atamalar va ta'riflar" (O'zDst 014:2002).

4."Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlash. Atamalar va tariflar" (O'zDst 1015:2002).

5. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlash. Asosiy qoidalar" (O'zDst 1016:2002).

6. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar manbalari. SHikastlovchi omillar va ular ko'rsatkichlarining tasnifi va nomenklaturasi" (O'zDst 1017:2002).

7. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar manbalari. SHikastlovchi omillar. SHikastlovchi ta'sir ko'rsatkichlarining nomenklaturasi" (O'zDst 1018:2002).

Favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish borasida o'tqaziladigan tadbirlar fuqaro muxofazasi soxasida qabul qilingan me'yoriy- xuquqiy xujjatlar asosida olib boriladi. Bunday xujjatlardin biri O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi xaqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan 1997 yilda qabul kilingan qaroridir.

3-ma’ruza Avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo’lmaydigan ishlarni tashkillashtirish va o’tkazish asoslari (2 soat)

O’quv savollari:

1. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining (FVDT) asosiy vazifalari.
2. Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining ish rejimlari.
3. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish kuch va vositalari.
4. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari.

Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish masalalarini O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi tomonidan hal qilinishi ko’zda tutiladi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2012 yil 24 avgustdagи 242-sonli qarori «O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to’g’risida» qarori asosida tuzilgan. Ushbu tizim boshqaruv organlari, Respublika va maxalliy xokimiyat organlarini fuqaro muxofazasi vazifalarini xal etish vakolatiga ega korxonalar va muassasalarning kuch va vositalarini birlashtiradi. SHuningdek favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni amalga oshirish, ular yuzaga kelganda aholi xavfsizligini, atrof tabiiy muhitni muxofaza qilish hamda tinchlik va harbiy davrda davlat iktisodiyotiga zararni kamaytirishni taminlashga mo’ljallangan.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining asosiy vazifalari:

1. Tinchlik va xarbiy davrda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasida huquqiy va iktisodiy me’yorky xujjalarning yagona Konstitutsiyasini belgilash, ishlab chiqish va amalga oshirish.
2. Respublika hududida yuzaga kelishy mumkin bo’lgan texnogen va tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlarni prognozlash, ularning ijtimoiy-iktisodiy oqibatlarini baxolash.
3. Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga, odamlar xavfsizligini taminlashga, xavfli texnologiyalar va ishlab chikarishlarning tavakkalchiligini pasaytirish, mulkchilik shaklidan va idoraviy buysinishidan kat’iy nazar, iktisodiyot tarmoqlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyat ko’rsatishining barqarorligini oshirishga qaratilgan maksadli va kompleks ilmiy-Texnik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.
4. Boshqaruv organlari va tizimlarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularnn bartaraf etish uchun mo’ljallangan kuch va vositalarining doimiy tayyorligini ta’mynlash.
5. Aholi va hududlarii favqulodda vaziyatlardan muxofaza kilish sohasidagi axborotlarni yigish, ishlab chiqish, almashish va berish.

6. Aholini, boshqaruv organlarining mansabdar shaxslarini, Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining asosiy vazifalari kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash.

7. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish.

8. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish.

9. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish.

10. Favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy muxofaza qilishga oid tadbirlarni amalga oshirish.

11. Favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasida aholining, shu jumladan ularning oqibatlarini bartaraf etishda bevosita katnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish.

12. Aholi va hududarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasida xalkaro hamkorlik qilish.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining ish rejimlari:

1. Kundalik faoliyat rejimi – Favqulodda vaziyatlarda yuz bermaganda ishlab chikarish-sanoat, radiatsion, kimeviy, biologik (bakteriologik), seysmik va gidrometeorologik

vaziyatda, epidemiya, epkzootiya va epifitotiya holatlari bo'l magandagi rejim.

2. Yukori tayyorgarlik rejimi – bu rejimda ishlab chikarish, radiatsiyaviy, kimyoviy, biologik (bakteriologik), seysmik va gidrometeorologik vaziyat

yomonlashganda, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lib prognoz olinganda amal qilinadi.

3. Favqulodda rejim - Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda va Favqulodda vaziyatlar davrida.

Xar bir rejimda aniq bir tadbirlar amalga oshiriladi.

Kundalik faoliyat rejimida: favqulodda vaziyatlarning oldini olish, etkazilishi mumkin bo'lgan zarar qisqarish, favqulodda vaziyatlar chog'ida muxofaza qilish yo'llari qv xarakat qilishga o'rnatishni tashkil etish.

Yukori tayyorgarlik rejimini o'rnatish huquqi fuqaro muxofazasi boshliqlari: O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri, Koraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimlariga berilgan.

- Yukori tayyorgarlik rejimi. Ushbu rejimda favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelishi to'g'risida tegishli organlarga, aholiga xabar beriladi; Favqulodda vaziyatlar boshqaruv organlari kuyi tizimlari va bug'inxilar faoliyatiga raxbarlik qiladilar. Zarur xollarda vaziyatning og'irlashishi sabablarini aniqlash uchun ofat yuz berishi mumkin bo'lgan hududda tezkor guruxlarni tashkil etiladi; favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi raxbarlar tarkibining doimiy dislokatsiya punktlarida kecha-kunduz navbatchilagini joriy etilib, viloyatlar, tumanlar Favqulodda vaziyatlar buyicha boshqarmalar bo'limlarning tezkor-navbatchi xizmatlarini hamda vazirliklar, idoralar va ob'ektlarning navbatchi-dispetcherlik xizmatlari kuchaytiriladi. Atrof tabiiy muhitning axvoli, kuchli xavfli ob'ektlar va ularga yondosh bo'lgan hududlardagi

vaziyatni kuzatish va nazorat qilishni kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish extimollarini, ularning ko'lamlari va oqibatlarini prognozlash; favqulodda vaziyatlarda aholi, va atrof tabiiy muhitni muxofaza qilish. shuningdek ob'ektlar va iktisodiyot tarmoqdarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash chora-tadbirlarini kurish; kuchlar va vositalarni tayyor xolga keltirish, ularning harakat rejalarini aniqlashtirish hamda zarur bo'lganda mo'ljallanayottan favqulodda vaziyat hududiga yunaltirish.

- Favqulodda rejimda: favqulodda vaziyatlar yuzaga kyolganligi to'g'risvda boshqaruv organlariga xabar berish va aholini xabardor qilish; tezkor guruxlarni favqulodda vaziyat hududiga yunaltirish; aholini muxofaza qilishni tashkil etish; favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni tashkil qilish; Favqulodda vaziyatlar zonalar chegaralarini belgilash; sanoat tarmoqdaoi va ob'ektlarning barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, zarar kurgan aholining xayotiy faoliyatini ta'minlash ishlarini birinchi navbatda tashkil etish; favqulodda vaziyat hududvdagi atrof tabiiy muhitning holati, avariya ob'ektlari va ularga chegaradosh hududlardagi vaziyatni uzlusiz nazorat qilishni amalga oshirish.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi hududiy kuyi tizim (14) va funksional kuyi tizim (22) dan iborat (1 rasm).



1- rasm. Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari.

Hududiy quyi tizimlar tarkibi, Koraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxrida tuziladi va tegishli ravishda tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar mikyosidagi buginlardan iborat buladi. Ularning asosiy vazifasi uz ma'muriy hududlari doirasida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilishdir.

Funksional kuyi tizimlar vazirliklar, davlat kumitalari, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar va kompaniyalarda tarkibida tuziladi. Xar bir idora bir yoki bir necha quyi tizimga ega bo'lishi, yoki umuman quyi tizim tashkil etmasligi, yoki bir necha vazirlik va idoralar bitta quyi tizim tashkil etishlari mumkin. Ushbu masala Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risidagi Nizomning 3-ilovasida (O'zbekistan Respublikasi vazirliklari va idoralarining aholini va hududlari favqulodda vaziyatlardan muxofacea qilish buyicha funksiyalari) bayon etilgan. Funksional quyi tizimlarning asosny vazifasi atrof tabiiy muhit va kuchli potensial xavfli ob'ektlar holatini kuzatish va nazorat qilishni amalga oshirish, shuningdek idoraga qarashli ob'ektlarda ularning ishlab

chiqarish faoliyati bilan bog'lik extimoliy favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular yuz bersa oqibatlarini bartaraf etishdan iborat.

Axborot-boshqaruv kuyi tizimi Ular boshkaruv, axborot markazlari, axborot alokalari oz ishiga otadi.Favqulodda vaziyatlardan vazirligining favqulodda vaziyatlarda boshqaruv markazi, Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining asosiy vazifalari hududiy va funksional quyi tizimlarining axborot-tahlil markazlari, atrof tabiiy muhit va potensial xavfli ob'ektlar holatini kuzatish va nazorat qilish organlarining axborot markazlari, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalarini boshqarishning harakatlanuvchi punktlari, aloqa va axborot uzatish vositalari, shu jumladan boshqarish va axborot bilan taminlanishini avtomatlashtirilgan tizimini uz ichiga oladi.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi 3 ta darajaga ega:

Respublika.

Maxalliy.

Ob'ekt.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining xar bir darjasи kuyidagilarga ega buladi:

Raxbar organlar.

Kundalik boshqaruv organlari.

Favqulodda vaziyatlarsini bartaraf etish kuch va vositalari.

4. Favqulodda vaziyatlarsini bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari.

5. Xabar berish, aloka, boshqaruv va axborot bilan ta'minlashning avtomatlashtirilgan tizimlari (BAT).

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi raxbar organlari - bu aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish masalalarini xal etish vakolatiga kiramidan davlat boshqaruvi, maxalliy xokimiyat organlari va ob'ektlar ma'muriyatidir.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining kundalik boshqaruv organlari - bu Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining tegishli hududiy va funksional kuyi tizimlariga. hamda uning buginlariga bevosita kundalik boshqaruvni amalga oshiruvchi boshqaruv organlaridir. Ular kuyi-dagilarni uz ichiga oladi: Koraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar favqulodda vaziyatlarsini boshqarmalarni; shaharlar va tumanlar favqulodda vaziyatlarsini bo'limlari; ob'ektlarning favqulodda vaziyatlarsini bo'limlari (shu'balar yoki maxsus tayinlangan mansabdor shaxslar); vazirliklar va idoralarning davlat nazorati organlari (nazorat inspeksiya xizmatlari); vazirliklar va idoralarning favqulodda vaziyatlarsini bo'limlari (shu'balar yoki maxsus tayinlangan mansabdor shaxslar); Favqulodda vaziyatlarsini vazirligining favqulodda vaziyatlarni boshqarish markazi; favqulodda vaziyatlarsini boshqarmalari (bo'limlari)ning tezkor-navbatchilik xizmatlari; vazirliklar, idoralar va ob'ektlarning navbatchi-dispatcherlik xizmatlari.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining kuch va vositalari 2 guruxga bo'linadi:

1. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish kuch va vositalari ular davlat va idoraviy nazorat organlari, shuningdek funksional kuyi tizimning oldini olish kuch va vositalaridan iborat.

2. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish kuch va vositalari. Ular tarkibiga fuqaro muhofazasi tuzilmalari; favqulodda vaziyatlar vazirligiga to'g'ridan-to'g'ri hamda tezkor bo'yсинувчи Respublika ixtisoslashtirilgan tuzilmalari; vazirliklar va idoralarning harbiylashtirilgan professional ixtisoslashtirilgan avariya-qutqaruv va avariya-tiklash bo'linmalari; maxalliy xokimiyat organlarining Koraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi qutqaruvchi komandadarining tuzilmalari; ob'ektlarning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari; hududiy va ob'ektlarning umumiyligi va maxsus maqsadlardagi tuzilmalari; Kizil yarim oy jamiyatining ko'ngillilar otryadlari, komandalari, guruxlari; «Vatanparvar» mudofaaga kumaklashuvchi tashkiloti kabi tuzilma, tashkilotlarning kuch va vositalaridan tashkil topgan.

Favqulodda vaziyatlar oqibatini bartaraf etishda jalb qilinib, ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- favqulodda vaziyatga tezkor kirishish, favqulodda vaziyatlarni cheklash va oqibatlarini bartaraf etishda samarali harakatlarga shay turish;
- razvedka o'tkazish, vaziyatni baxolash va Favqulodda vaziyatlar vazirligiga tezkor ma'lumot yuborish;
- jaroxatlanganlarda, moddiy boyliklarni qidirib topish, qidiruv-qutqaruv ishlarini o'tkazish.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi vositalari - aholini va hududlarni Favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish uchun zarur bo'lgan moliyaviy va moddiy resurslar majmuidir.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari oldindan, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan taqdirda shoshilinch tarzda jalb etish maqsadida yaratiladi. Moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, ulardan foydalanish va to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun quyidagi mablag'lardan foydalilanildi:

- O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga zaxiradagi moliyaviy jamg'armasi va Favqulodda vaziyatlarni tugatish chetida birinchi navbatdagi ishlarni amalga oshirish uchun davlat zaxirasi tarkibi xisobidan yig'iladigan moddiy resurslar zaxiralarini Respublika byudjet mablag'lari hisobidan;
- idoraviy moliyaviy va moddiy resurslar zaxirasi - vazirliklar va idoralar mablag'lari xisobidan;
- maxalliy xokimiyat organlarining moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi - maxalliy byudjet mablag'lari xisobidan;
- obektlarning moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi - korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari xisobidan;
- Kizil yarim oy jamiyatining tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan aholiga yordam ko'rsatish uchun birinchi navbatda zarur bo'lgan xom ashyo omborlari va

zaxiralari tizimlari mablag'lari hisobidan va boshqa turdag'i mablag'lardan foydalaniadi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari nomenklaturasi va xajmlari ularni tashkil etgan organ tomonidan belgilanadi. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, agar bu birlashmalarning qutqaruvchilari attestatsiya tartibida tasdiqlangan tegishli tayyorgarlikdan o'tgan bo'lsa, jamoat birlashmalari ham ishtirok etishlari ko'zda tutiladi.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish avariya ob'ektlari, vazirliklar va idoralarning, hududida favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan xokimliklarning balansida turadigan kuch va vositalari bilan amalga oshiriladi.

Ushbu ishlar ob'ektlarning, vazirliklar (idolar) va, xokimliklarning tezkor guruxdari (mutaxassislari) raxbarlarining bevosita boshchiligidagi bajariladi.

Favqulodda vaziyatning ko'lami, mavjud kuchlar va vositalar yordamida bartaraf etish mumkin bo'lмаган xolda, zaruriy yordam ko'rsatish uchun Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining yuqori raxbar organiga yordam so'rab murojat qilinadi. Aloxida vaziyatlarda favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun xukumat komissiyasi tashkil kilinishi mumkin.

Favklodda vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni mablag' bilan ta'minlash favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududda joylashgan ob'ektlarning, vazirliklar va idoralarning mablag'lari, tegishli byudjetlar, sug'urta jamg'armalari va boshka manbalar xisobidan amalga oshiriladi. Bunda ko'rsatilgan mablag'lar etarli yoki mavjud bo'lмаган taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining zaxira jamg'armasidan ajratilishi ko'zda tutiladi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular yuzaga kelganda keltirilgan talofat va zararning miqdorini kamaytirish buyicha oldindan choralar ko'rish yoki yuzaga kelganida harakat qilish buyicha Respublika, idora rejalar, xokimliklar va ob'ektlarning harakat qilish rejalar, shuningdek Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining barcha darajalarida o'zaro hamkorlikda harakat qilish rejalar ishlab chiqiladi.

Fuqaro muxofazasi barcha tadbirlarini Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi tomonidan amalga oshirish uchun kuch va vositalar avvaldan, iktisodiy, tabiiy va boshqa ko'rsatkichlarni, hududning xususiyatlarini va favqulodda vaziyatning yuz berish extimolligi darajasini xisobga olgan xodda tashkil etiladi.

4-ma’ruza. Avariya-qutqaruv jihozlaridan foydalangan holda avariya-qutqaruv ishlarini amalga oshirish (4 soat)

O’quv savollari:

1. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar.
2. Texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar.
3. Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlar.
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan keltirilgan favqulodda vaziyatlarning tasnifi.
5. Respublikamiz hududida yuz berish extimoli bo’lgan tabiiy favqulodda vaziyatlar.

Umumiy xolda favqulodda vaziyatlar sababi va kelib chiqish manbaiga qo’ra tasniflanadi, jumladan:

Tabiiy tusdagi FV;

Texnogen tusdagi FV;

Ekologik tusdagi FVlarga bo’linadi.

Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar tabiiy ofat sodir bo’lish joyi, sababi, ko’lami, moddiy zarari va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularga 3 xil turdagi xavfli xodisalar kiradi:


1) geologik xavfli xodisalar: zilzilalar, yer kuchishlari, tog’ o’pirilishlari va boshqa xavfli geologik xodisalar;

- yashirinlik.

Barqarorlikka:

- Bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning zararlantiruvchi omillarini e'tiborga olgan xolda aloqa tizimini tashkil etish;

- Aloqa uzellari qismlarini himoya inshootlariga joylashtirish;

- Turli aloqa vositalarini birgalikda qo'llash;

- Aloqa zaxira kuch va vositalarini tuzish, ularni to'g'ri joylashtirish va o'z vaqtida qo'llash bilan;

Harakatchanlikka:

- Aloqa tizimini yoyish va qismlarini yig'ish vaqtini kamaytirish;

- Aloqa kuch va vositalarini to'g'ri joylashtirish va zaxiralaridan to'g'ri foydalinish;

- Aloqa kanallari, kuchlari va vositalari bilan tezlikda harakat qilish bilan;

- Aloqa tizimini tezlik va barqaror boshqarish bilan yerishiladi.

Aloqa tizimini o'z vaqtidaliligi:

- Aloqa tarmoqlarini boshqaruva punktlarida avvaldan o'rnatib ishga tayyorlab qo'yish bo'yicha tashkiliy va muxandislik texnik tadbirlarini o'tkazish;

- Tezkor va barqaror boshqarish;

- O'zaro axborot almashinish va ko'rsatuv olib borish bo'yicha qabul qilingan qoidalarga rioya qilish;

- Uzatilayotgan axborotlar hajmi so'z jixatidan kam va ma'no jixatidan tushunarli hamda farmoyish va xabarlarni bir qolipga solish;

- Aloqa tarmoqlarida tezkor-texnik xizmatni aniq tashkil qilish va axborotlar harakatini qattiq nazoratga olib borish.

Aloqa tizimini ishonchliligi:

- Aloqa kanallari va vositalarining texnik tavsifini o'rnatilgan (qabul qilingan) parametrlarda saqlab turish;

- O'ta muhim axborotlarni uzatish uchun yuqori sifatli kanallarni qo'llash;

- Bir paytning o'zida bitta kanal orqali xabarlarni qaytatdan uzatish;

- Orqaga tekshirish va o'ta ishonchli apparatlarni qo'llash bilan yerishiladi.

Aloqa tizimining yashirinliligi :

- Maxfiylashtirish, shifrlash, kodlashtirish apparatlarini va yashirin boshqarish hujjatlarini qo'llash;

- O'zaro axborot almashinishda, ma'lumotlarni uzatishda qabul qilingan qoida va tartiblarni saqlash;

- Maxfiy axborot almashinuvida iloji boricha kamroq odamlarni jalg qilish;

- Aloqa vositalarini to'g'ri joylashtirish, ularni ishslash tartibiga qatiy rioya qilish.

Xabar berish tizimining asosny vazifalari.

Aloka va xabar berishni tashkil etish uchun fuqaro muxofazasi boshliklari mas'uldir. Aloka va xabar berish tizimining asosiy vazifalari;

- signallarni uz vaktida berish va qabul kilib olish, FVDT rejimlarini urnatish xususida farmoyish yuborish;

- FVDT boshqaruv organlari urtasyda kuyidan yukrriga va yukoridan kuyiga axborot almashinishing ishonchli bo'lishini ta'minlash.

1. Respublika darajasida:

- respublika markazlashtirilgan xabar berish tizimini, shuningdek axborot bilan ta'minlash va boshqarshshing avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va uni doimiy tayyor xolda saqlash;

- aloka, radio, televideenie va boshka texnika vositalarining davlat va idoraviy kanallaridan boshqarish va axborotni uzatish uchun markazlashtirilgan xolda foydalayaishni ta'minlash;

- yutmyoviy va boshk.a xavf kushi ob'ektlarda hamda ularga yondosh hududlarda xabar berish va axborot uzatishning maxalliy tizimini, shuningdek, suv omborining gidrotexnik inshootlarida signalizatsiya va xabar berishning maxalliy avtomatlashtirilgan tizimlarini loyixalashtirish va yaratishni nazorat qilish;

- yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar, ularning rivojl.anish ko'lamlari va kechishi, mumkin bulgai oqibatlari hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga oid qabul kilinayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborotlar tugshanitsi va almashiliqni hamda xabar kilinishini ta'minlash va nazorat qilish.

2. Maxalliy darajada:

- viloyat ichki aloka xabar berish tizimlari, shuningdek boshqaruvning va axborot bilan ta'minlashning avtomatlatsggprilgan tizimi (BAT)ni tashkyal etiň va Doimiy tayyor xolda saqlash;

- boshqarish va axborotni uzatish uchun aloka, radio, televideenie xavda boshka texnika vositalarining davlat, viloyat va idoraviy kanallaridan markazla/tirilgai xolda foydalanishni ta'minlash;

- manfaatdor vazirliklar va idoralzr bilan birgalikda komyoviy va boshka kuchli xarflı objeektlar va ularga yondosh hududlarda xabar berish va axborot uzatishning maxdliy tizimlarini, shuningdek suv omborlarining gidrotexnik inshootlarida signalizatsiya va xabar berishning avtomatik tizimlarini yaratish.

3. Ob'ekt darajasida:

- komyoviy va bosh^a xavfli obyeoktlarda xabar berish va axborot uzatishning maxalliy tizimlarini, shushngdek gidrotexnik inshootlarda signalizatsiya va xabar kNlishning maxalliy avtomatik tizimlarini yaratish ishlariny tashkil etish;

- xabar berish, axborot tuplashni ta'minlash va nazorat qilish, yuzaga kelgan favqulodda vaziyat, uning rivojlaiish ko'lamlari va kechishi, yetkaeishi mumkin bo'lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatni bartaraf etish uchun kurilaetgan chora-tadbirlar va zaruriy yordam to'g'risida yukori organlarga ma'lum'' berish.

O'zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralari xabar berish va axborot uzatish tizimining aholini va hududlarnn Favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish buyichavazifalari:

- fuqaro muxofazasi tadbirlarini o'tkazish chog'ida aloka tizimlarini ng ishonchli va barqaror ishlashini ta'minlashni tashkil etish za amalga oshirish;

- idoraviy potentsial xavfli ob'ektlarda signalizatsiya va xabar berishning maxalliy avtomatlashtirilgan tizimini yaratish;

- aholini favqulodda vaziyat xavfi tugilganligi va sodir bulgashgogi to'g'risidagi axborot bilan ta'minlash.

Xabar berish signallari va ular buyicha ax;ashning xrrakipi Aholi muxofazasi kzedaydir xavf-xatar taxdidi tugilgani yoki yuzaga kelgashgigi to'g'risida xabar berish va axborot tarkatishni uz vaktida amalga oshirishdan

boshlanadi.



Xabar berish shartlashib olingan, oldindan belgilab kuyilgan va aholiga anik tişqunarli bo'lgan signallar (sirenu ovozi, ovoz chshdruvchi buyumlarni urish va zek.) orkali amalga oshiriladi.

Xavf signalini aholiga yetkazishning asosiy vosi{asi bo'lib elektr sirenalari xisoblanadi.

Kanday xavf tugilmasin, elektr sirenalari ishga tushiriladi. Ularning xaykirigiga korxonalarining uzuk-uzuk gudoklari jur buladi. Bu fuqaro muxofazyshning yagona «Dikkat, barchaga» signalidir.

Sirena ovozi eshitilgan zaxoti televizor, radiopriyomnik, radiokarnaylarni ishlatib kuyib, maxalliy xokimiyyat rrganlarining yoki favqulodda vaziyatlar boshqarma (bo'lim)larining yuzaga kelgan taxdidning xaraktery, kulami, shuningdek bunday sharoitlarda aholining to'g'ri harakatlari to'g'risidagi tavsiyalarii tinglash kerak.

Favqulodda vaziyat yuz bergen joyda aholiga xabar berish tartibi

Radioeshittirish va televideniya (jo'r ovoz bo'ladigan radiouzatgichlarni ham qo'shib) respublika aholisiga habar berish va ommaviy axborotni yetkazishning asosiy vositalari hisoblanadi.

FM habar berish signallari orqali, zaharlanish va halokatli suv bosish xavfi haqidagi ogohlantirish, shuningdek yuzaga kelgan hatti-harakat tartibi haqidagi axborotni respublika (mahalliy) eshittirishlarida ovozli xabar tarzida aholiga yetkaziladi.

FM habar berish signallari va tegishli axborot butun hududga ham, shuningdek hududlarni tanlab olib (viloyat tumanini) ham berilishi mumkin.

Kimyoviy zaharlanish yoki halokatli suv bosishi xavfi haqida KTEZM bor ob'ektlarning disptcherlari (smena muhandislari) to'g'ridan to'g'ri ulangan simlar (radiostantsiyalar) yordamida viloyatlarning tezkor navbatchilariga xabar beradi.

SHunday qilib, FV xavfi borligi yoki yuzaga kelishi va aholini xatti -harakatlari xaqidagi axborotni to'g'ri, to'liq va o'z vaqtida yetkazish xabar berish tizimining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, unga ommaviy axborot vositalari boshqaruva punktlarini, nozimlik xizmatlarini mos apparatlar, xabar berish ma'tinlari yozilgan audio va video tasmalari bilan avvaldan ta'minlab berish orqali yerishiladi.

Ishonchli va barqaror aloka, shuingdek xdkxokny axborot - aholi muxofazzsini tashkil etish va favqulodda vaziyatlarning oldiii olish tadbirlari zanjiridagi asosiy buginlardan biridir.

Aloqa va xabar berishni tashkil etish.



Fuqaro muhofazasi havf - xatar haqida yoki uning yuz berishi mumkinligi to'g'risida o'z vaqtida xabar va ma'lumot berishdan boshlanadi.

Aholiga xabar berish - bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, zilzila, suv bosishi, yoki boshqa tabiiy ofatlar haqida ogohlantirish bo'lib, o'tgan avariya, katastrofalar haqida xabar berishdir.

7-ma’ruza. Qidiruv-qutqaruv ishlarini o’tkazish bo’yicha asosiy texnologiyalar (2 soat)

O’quv savollari:

1. Tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar.
2. Geologik va gidrometeorologik xavfli xodisalar.
3. Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar.

Tabiiy xususiyatlari favqulodda vaziyatlar

Sodir bo’ladigan xar qanaqa tusdagi tabiiy ofatlar mamlakatning iqtisodiyotini izdan chiqishiga, ko’plab insonlarning o’limiga yoki xayot faoliyatining buzilishiga, tabiatning zararlanishiga va boshqa salbiy oqibatjarga olib keladi. Butun jahon “Qizil Xoj” hamjamiyati tashkilotining ma’lumotlariga qaraganda tabiiy ofatlardan ko’rilib yotgan moddiy va ma’naviy zarar miqyosi butun dunyoda yuqori tezlikda ortib bormoqda. Ayniqsa, o’tgan XX asrda tabiiy ofatlardan 11 mln. dan ortiq insonlarning o’limi va juda katta miqyosda moddiy zararlar ko’rilgan.

SHunga o’xshash xolat XXI asrning o’tgan 8 yili davomida xam kuzatildi. Jumladan, 2004 yil Xind okeanidagi “Sunami” dan - 300 ming; 2005 yil AQSHdagi “Katrina” to’fonidan - 200 ming; 2005 yil Kashmirdagi (Pokiston) yer silkinishidan - 78 ming; 2008 yil “Myanma” to’fonidan 130 ming; 2008 yil Xitoydagagi “Sechuan” yer silkinishidan 62 mingdan ortiq odamlarning o’limi yuz berdi.

Tabiiy ofat - bu tabiatda yuz beradigan favquloddagi o’zgarish bo’lib, u birdan, tezlikda insonlarning mo’tadil yashash, ishlash sharoitlarini buzilishi, odamlarning o’limi hamda qishloq xo’jalik hayvonlarining, moddiy boyliklarning buzilishi va yo’q bo’lib ketishi bilan tugaydigan hodisalardir.

Tabiiy ofatlarning turlari xilma-xil: yer silkinishi, suv toshqini, kuchli shamol, yong’in, qurg’oqchilik, yer surilishi va boshqalar. Bu xildagi tabiiy ofatlar bir-biriga bog’liq holda hamda bog’liq bo’lmagan holda, alohida yuzaga kelishi mumkin. Ya’ni bir tabiiy ofat boshqa ofat oqibatida yuzaga kelishidir. Masalan, o’rmonda yong’inlarning kelib chiqishi, tog’li joylardagi ishlab chiqarish portlashlari, karerlarni ishga solishda, platinalar qurishda yerning surilishiga, qorlarning ko’chishi va boshqa ofatlarning kelib chiqishiga sabab bo’ladi.

Hech narsaga bog’liq bo’lmagan tabiiy ofatlar juda katta miqyosda va turli vaqtlargacha bir necha soniya, daqiqadan (er surilishi, yer silkinishi, qor ko’chishi) bir necha saatlargacha (kuchli qor va yomg’ir yog’ishi), hatto kun va oygacha (suv toshqini va yong’in bo’lishi) cho’zilishi mumkin. Lekin bu xildagi tabiiy ofatlar hamma joylarda ham yuzaga kelavermaydi. Jumladan, yer silkinishi, yer surilishi ofatlari ko’proq tog’li hududlarda kuzatiladiki, buni oqibatida nafaqat insonlar, balki iqtisodiyot tarmoqlari, hatto atrof-muhit qattiq shikastlanadi.

Yana kuchli yog’ingarchilik, qor yog’ishi natijasida suv toshqini kuzatiladi, oqibatda, fuqarolarning yashash joylari, sanoat korxonalari, temir va magistral yo’llar, gidrotexnik inshootlar izdan chiqadi. Xuddi shunga o’xshash ta’sirlar yer surilishi, qor ko’chishi, qurg’oqchilik, kuchli shamollar ta’sirida ham kuzatilib, oxir oqibatda insonlar katta, ham ma’naviy, ham moddiy zarar

ko'radilar. Ammo, barcha tabiiy ofatning turlari hamma joyda ham kuzatilavermaydi. Tabiiy ofatning har qaysi shakllari o'zlarining fizik ma'nosiga, kelib chiqish sabablariga, tavsifiga, kuchiga va tashqi atrofga ta'sir ko'rsatish xususiyatlariga ega.

Bu tabiiy ofatlar bir-biridan farq qilishidan qat'iy nazar, ular bir umumiyligida xususiyatga ega. Ya'ni ularning ta'siri juda keng miqyosda bo'lib, o'zini o'rabi turgan atrof-muhitga juda katta ta'sir kuchini ko'rsatadi hamda insonlar ruhiyatiga jiddiy zarba beradi. SHuning uchun, bu tabiiy ofatlarni o'z vaqtida bilib, uning tavsiflari va sabablari aniq o'rganilsa, ularni oldini olish yoki zarar keltirish xususiyatlari bir munkha kamaytirilgan bo'ladi. SHu tariqa tabiiy ofatlardan keyingi qilinadigan xatti-harakatlarni va ofat oqibatlarini tezroq hal qilish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Tabiiy ofatlarga qarshi kurash choralaridan biri bu xalqni o'z vaqtida voqif etish hisoblanadi. Bu esa tabiiy ofatdan keladigan zararlarni bir munkha kamaytirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Yana tabiiy ofatlar yuz berganda xalqqa ma'naviy yordam berish chora-tadbirlari va qilinadigan birlamchi ishlarni to'g'ri tashkil etish shakllari eng asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu ishlarning bosh-qoshida fuqarolar muhofazasi organlari turib, ular ofat yuz bergen joyda (urush davrimi, tinchlik davrimi baribir), xalqni bu ofatlardan muhofaza etish va falokat yuz bergen joydan hammani bexatar joyga ko'chirish omillarini amalga oshiradi. Qaysi yerda yuqori intizom, aniq belgilangan chora-tadbirlar bo'lsa, o'sha yerda har qanday ekstremal sharoitlarda harakat qilish ishlari va ularning natijalari yuqori bo'ladi (ma'naviy talofot va moddiy yo'qotish).

Suv toshqini va uning talofatlari

Keyingi vaqtarda respublikamiz hududining ko'pchilik qismida gidrometerologik holatning keskin o'zgarishi tufayli, aholining hayot faoliyatini, tabiatini, moddiy resurslar sifatini izdan chiqaruvchi favqulodda vaziyatlar (sellar, suv toshqinlari, qor ko'chkilari, kuchli shamollar, qurg'oqchilik va h.k.) kuzatilmogda.

Bunday holatlarning yuzaga kelishiga biologik va meterologik o'zgarishlarni hisobga olmaslik, yangi yerlarni o'zlashtirishda qo'yilgan xatoliklar, sug'orish tizmida zamonaviy texnologik usullarni joriy etilmaganligi sabab bo'lmoqda.

1998 yilda Favqulodda vaziyatlar vazirligi ma'lumotiga ko'ra respublikamiz hududida 600 ga yaqin ko'chki, sel va suv toshqinlari bo'lgan bo'lsa, ularning zararli oqibatlari natijasida 16 ming aholi jabrlanib, ko'rilib moddiy zarar esa 100 mln. so'mdan ortiqni tashkil etgan. Mutaxassislar xulosasiga ko'ra respublikamiz hududida 238 ta xavfli ko'llar, 46 ming kv. km hududlar suv va sel toshqinlari ro'y beradigan xavfli joylar, 1000 ga yaqin xavf sodir bo'lishiga olib keluvchi daryo va soylar mavjudligi aniqlangan.

Suv toshqini ham tabiiy ofatlar ichida eng xavfisi hisoblanadi. Suv toshqini deb daryo, ko'l, hovuzlardagi suv sathining keskin ko'tarilishi natijasida ma'lum maydonlardagi yerlarni suv tagida qolishiga aytildi.

Suv toshqiniga turli omillar sababchi bo'ladi:

- Kuchli yomg'ir yog'ish oqibatida (jala, sel quyishi);
- Qorlarni surunkali yerishi natijasida;

- Kuchli shamol esishi natijasida;
- Oqar daryolardagi muzliklarni yig'ilib, sun'iy to'g'on hosil qilishi;
- Tog' jinslarining nurashi, surilishi yoki boshqa sabablar bilan suv saqlash omborlarining buzilishi oqibatida.

Kuchli yomg'ir yog'ishi natijasida suvlarning sathi keskin ko'tarilib, daryo, ko'llarga sig'maydi va natijada ekin maydonlarni, turar-joylarni, yo'llarni suv bosadi va ularni izdan chiqaradi. Bulardan tashqari, elektr energiya, aloqa uzatgichlar, meliorativ tizimlar ishdan chiqadi, chorva mollari, qishloq xo'jalik ekinlari yo'q bo'lib ketadi, xom ashylar, yoqilg'i, oziq-ovqatlar, mineral o'g'itlar va boshqalar yaroqsiz holga keladi yoki yo'q bo'lib ketadi. SHular natijasida juda katta moddiy zarar ko'rilib, insonlar o'limi bo'lishi mumkin.

Suv toshqini ofati turli joylarida, jumladan, O'zbekistonda ham tez-tez bo'lib turadi. Masalan, 1991-95 yillarda ko'pgina viloyatlarida Xorazm, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo va boshqa joylarda juda katta ekin maydonlari suv ostida qolib, oqibatda katta miqdorda moddiy zarar ko'rildi. Jumladan, 750 ming ga. paxta, 28 ming ga. poliz, 20 ming hektar mevazorlar, shuningdek 21 ming turar joy binolari, 100 dan ortiq bolalar bog'chalari va maktablar, 250 km avtomobil yo'llari, 113 ta ko'priklar va 200 km dan ortiq sug'orish inshoatlari yaroqsiz xolatga keldi.

2009 yil oktyabr oyida Fillipinda yomg'irning surunkali yog'ishi kuchli suv toshqinlarini yuzaga keltirib xududlarni, yashash va ish joylarini, ko'priklarni va yo'llarni vayronaga aylantirdi. Bu xam yetmaganday namgarchilikning xaddan tashqari yuqori bo'lishi oqibatida tog' oldi joylarida ko'chkilar yuz berdi. Bu ofatdan 2,5 mln odamlar zarar ko'rib, xavfli xududlardan 30 ming axoli xavfsiz xududlarga evakuatsiya qilindi va ko'rilgan moddiy zarar miqyosi bir necha 10 mln AQSH dollirini tashkil qildi. SHuningdek 2009 yilda Turkiyaning 15 mln aholisi bo'lgan Istanbul shaxrida tinimsiz yoqqan yomg'ir, 2m balandlikdagi suv toshqinini yuzaga keltirib, minglab uylarni, yo'llarni vayronaga aylantirdi.

Daryolardagi suvning oqimiga teskari yo'nalishda esadigan kuchli shamol ham uni sathini ko'tarib yuboradi va natijada suv toshqini yuz beradi. Bu xildagi toshqin Sankt-Peterburgdagi Neva daryosida kuzatilgan. 1997 yil noyabrdan Vietnamda ham juda kuchli shamol oqibatida suv toshqini bo'lib, katta miqyosdagi uy joylar, moddiy resurslar suv tagida qolib, ko'plab odamlar halok bo'lismagan.

Oqar daryolarda suvlarning sathida muzliklar hosil bo'lishi va bu muzliklar yig'ilib suvning oqimiga qarshi to'siqlar (to'g'on) hosil qilishi natijasida ham suv toshqini ro'y beradi. Bu xildagi toshqin 1992 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida Amudaryo oqib o'tadigan uchta hududda kuzatilgan. Bu ofatning oldini olish uchun hamma choralar bajarila bordi va oxir-oqibatda harbiy samolyotlar yordamida to'siq bo'lib turgan muz to'g'onlari portlatish yo'li bilan yo'q qilindi. Bu ofat natijasida Bo'zatov tumanining ko'pgina yerlari vayronaga aylanib, elektr tokini o'tkazuvchi manbalar, texnikalar ishdan chiqdi. Aspantoy, Porlitov, Qiziljar va Aliovul punktlariga olib boruvchi yo'llarni suv bosishi oqibatida aloqadan uzilib qoldi. Ofat oqibatlarini bartaraf qilishda 3200 dan ortiq aholi, 3026 bosh qora mollar xavfsiz joylarga ko'chirildi va Porlitov, Qiziljar va Aliovullarga boradigan 26 km yo'llar ta'minlandi. Bu ofatdan ko'rilgan moddiy

zarar yuz million so'mni tashkil qilgan. Bunday holatlardagi suv toshqinlari dunyo miqyosida juda tez-tez bo'lib turadi.

Suv toshqini kanallar va suv saqlaydigan omborlarning turli sabablarga ko'ra ishdan chiqishi oqibatida ham kuzatilishi mumkin. Umuman kanallar, suv omborxonalari - suv energiyasi, suv yo'llari hamda suvning o'zidan foydalanish maqsadida quriladi. Hozirgi kunda MDH davlatlarida suv sig'imi 1 mln. m³ dan ortiq bo'lган suv omborlari 1 mingga yaqin bo'lib, ularning suv sathi 116000 km² ga teng. Xuddi shunga o'xhash O'zbekistonda ham 54 ta suv saqlaydigan omborxonalar qurilgan, ulardan 10 tasi qo'shni Respublikalari chegarasida joylashgan. Jumladan, Qayroqqum, Rog'un, (Tojikiston), Tuyamo'yin (Turkmaniston), Taxtagul (Qirg'iziston), CHordarya (Qozoqiston) va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Respublikamizga tegishli bo'lган suv omborxonalarida 55,5 mlrd. m³ dan ortiq suv saqlanib, ular orqali asosan qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlab, katta iqtisodiy samara olinadi. Lekin shu bilan birga bunday gidrotexnik inshootlar biror sabablarga ko'ra buzilsa, saqlanayotgan suvning ta'siri insonlarga, uy hayvonlariga, atrof-muhitga juda katta jiddiy zarar keltiradi. SHunga o'xhash katta hajmdagi suv Tuyamo'yin suv omborida 5 km³dan ortiq, Qayroqqum suv omborida esa 4 km³dan ortiq suv saqlanib, mabodo biror sababga ko'ra ombor qismlari talofot ko'rsa, Jizzax, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlarini suv bosadi. Agar Taxtagul suv ombori talofot ko'rsa (unda 19 km³ suv saqlanadi) butun Farg'ona vodiysi viloyatlarini suv bosishi ehtimoli bor. Boshqa suv saqlash omborxonalari uchun ham shunga o'xhash fikrlarni aytish mumkin. SHuning uchun suv saqlaydigan omborxonalarni har xil falokatlardan asrash uchun hamma turdag'i omillar, ehtiyyot choralar ko'rib qo'yilgan bo'lishi zarur. Jumladan, birlamchi va ikkilamchi saqlovchi platina qurish, har bir platinalar temir betonli qorishmalardan tayyorlanishi va boshqa saqlovchi omillar belgilanishi zarur. Afsuski, bunday chora-tadbirlar to'liq, mukammal tarzda belgilanishiga har doim ham jiddiy e'tibor berilmaydi. Hozirda, Tojikiston xududida bahaybat Rog'un GES qurilishini davom ettirish to'g'risidagi 2009 yilda qabul qilingan hukumat qarori Markaziy Osiyo davlatlarini tashvishga solmoqda. Ma'lumki, ushbu GES qurilishi XX asrning 80-yillarida boshlanib, keyinchalik muayyan sabablarga ko'ra to'xtab qolgan edi. CHunki o'sha davrda ushbu gidroinshoot loyihasi to'laqonli ekspertizadan o'tkazilmagan bo'lган, oradan shuncha vaqt o'tgandan so'ng, zamonaviy loyiha va konstruktorlik andozalari talablariga mos bo'lмаган eski loyiha asosida ish boshlangani, albatta tashvishli holat. Zero, ushbu GES qurilishi uchun tanlangan xudud 9-10 ballik seysmik aktivlikka egaligi va tektonik yoriq chiziqda joylashganligi nazarda tutilsa, baladligi 350 m dan iborat to'g'onda sodir bo'lishi mumkin bo'lган texnogen buzilish qanday halokatli oqibatlarga olib kelishini tasavvur qilish qiyin emas. Undan tashqari, ushbu gidroinshoot qurilishi natijasida butun Markaziy Osiyo mintaqasi xududlarida katta ekologik o'zgarishlar ro'y berishi hamda suv taqsimotidagi buzilishlar ko'lami ortishi, tabiiy. 2010 yil BMT Sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida Mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek: "Ko'plab xalqaro ekologiya tashkilotlari va nufuzli ekspertlar tavsiya qilayotganidek, ushbu daryolardan shu

miqdordagi energetika quvvatlarini olish uchun nisbatan xavfsiz, ammo ancha tejamkor GES lar qurilishiga o'tish oqilona yo'l bo'lur edi".

Suv toshqini xavfida quyidagi vazifalar bajarilishi talab etiladi: suv toshqini xavfi haqida aholini ogoh etish; razvedka va kuzatuv ishlarini olib borish; FVDT kuch va vositalarini jalb etish; qutqaruv va tiklov ishlarini olib borish; kerak bo'lganda aholini va moddiy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish; suv toshqini bo'lgan xudulardagi korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish jarayonini qisman yoki butunlay to'xtatish; suv bosgan hududlarda qutqaruv tizimlari va boshqa tizimlar kerakli texnika va suzuvchi vositalar yordamida odamlarni qutqarish va evakuatsiya qilish ishlarini olib boradi. Qutqaruv ishlarida ishtirok etuvchilar odamlarni suvdan qutqarish bo'yicha tajribaga, hamda qutqarilganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tajribalariga ega bo'lishi lozim.

Kuchli shamol, qurg'oqchilik va uning oqibatlari. Kuchli shamol, qurg'oqchilik ofatlari ham gidrometerologik favqulodda vaziyatlar turiga kirib, ularning tabiat va jamiyatga salbiy ta'sirlari ortib bormoqda. Jumladan, 1970 yil 13 noyabrda Pokistonning sharqiy hududlarida bo'lgan kuchli shamol oqibatida 10 ml. aholi talofot ko'rdi. SHundan 500 ming kishi halok bo'ldi va bedarak yo'qoldi. SHunga o'xhash salbi oqibatlar 2002 yilda Rossiyada, 2003, 2004 yilda AQSHning bir qancha hududlarida kuzatilgan kuchli dovullar oqibatida ham ro'y berган.

Kuchli shamol va insonlar hayotiga va iqtisodiyot tarmog'iga jiddiy zarar yetkazadigan ofatdir. Bu ofat uzoq davom etuvchi va buzish kuchiga ega. Bu ofatning tezligi 30-90 m/s ga yetadi. O'rta Osiyo mintaqalarida shamolning kuchi 40-60 m/s ga, O'zbekistonning Xovos, Bekobod tumanlarida esa 50-60 m/s tashkil etadi. Kuchli shamolni paydo bo'lishi, ya'ni atmosferada muvozanatning buzilishi natijasida havo oqimi juda katta tezlikda harakatlanib, ba'zi joylarda, u aylanma (voronka) harakatga kelib qoladi. Bunday ofat oqibatida odamlarning halok bo'lishi, inshootlarning buzilishi, ekinzorlarning payhon etilishi, elektr, aloqa tarmoqlarining izdan chiqishi va boshqa oqibatlarga olib keladi. SHuningdek, kuchli shamol esganda odamlar, uy hayvonlari yuradigan yo'llardan adashadilar, simyog'ochlar, daraxtlar ag'anaydi, uylarning tomlari buzilishi natijasida odamlar turli darajada jarohat oladilar. Masalan, 1997 yilda 2maydan 3mayga o'tar kechasi Qashqadaryo viloyatida kuchli shamol ta'sirida 156838 ga qisloq xo'jalik ekinzorlari, 12 km elektr tarmoqlarining shikastlanishiga, 250 turar joy uylarini, 79.5 km avtomobil yo'llarini suv bosishiga, 393 bosh yirik shoxli qoramolar, 7254 bosh qo'y, echkilar, 26 bosh ot va 13 ming 280 ta xonaki parrandalarning o'limiga olib kelganligi ma'lum.

Bu ofatdan saqlanishning yana bir omili - ofat haqida odamlarni o'z vaqtida ogoh qilishdir. Albatta, hozirgi paytda ob-havoni bir necha kun oldindan ayta oladigan zamonaviy uslublar yaratilganki, bularning bergen ma'lumotlari asosida nafaqat odamlarni, balki uy hayvonlarini, moddiy boyliklarni falokatdan asrash, buzilishini yoki yaroqsiz holga kelishini oldini olish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kuchli shamol ofati yuz berganda fuqaro muhofazasi tizimlari davlat organlari xodimlari boshchiligidagi qutqaruv va buzilgan joylarda tiklash ishlarini bajaradi, jabr ko'rganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatadi.

Qurg'oqchilik ofati ham O'zbekistonga xos bo'lib, ilgari bunga deyarli e'tibor berilmagan. Lekin keyingi yillarda ekologiyaning haddan tashqari buzilishi, suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish va boshqa sabablar oqibatida bizning mintaqada ham bunday ofat aynan hozirgi paytda kuzatilmoqda.

Qurg'oqchilikda odamlarni o'limi, daraxtlar, ekinzorlarning qurishi, kuchli yong'inlarning chiqishi va turli xil kasalliklarning tarqalishiga imkoniyat yaratiladi. Takidlash joizki, O'zbekistonda qurg'oqchilik muammosi Orol dengizi bilan bog'liqdir.

Respublikamiz Prizidenti Islom Karimov «O'zbekiston XX asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida ta'kidlaganidek: «Yaqin-yaqinlargacha cho'lu-sahrolardan tortib olingan va sug'orilgan yangi yerlar haqida dabdaba bilan so'zlanardi. Ayni chog'da ana shu suv Orolda tortib olinganligi, «jonsizlantirib qo'yilganligi» xayolga kelmasdi, endilikda Orolbo'yi ekologik kulfat hududiga aylandi». Ma'lumki, Orol dengizi suvi yildan yilga kamayib, qurib bormoqda. Buning oqibatida dengizga yaqin bo'lgan joylarda dov-daraxtlar, ekinzorlar qurib, turli xil kasalliklar ko'payib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, Amudaryo suvining bor-yo'g'i 10 foiz miqdori Orol dengiziga quyilmoqda. Ammo hozirgi vaziyatda dengizga quyilayotgan suv hajmidan ko'ra atmosferaga bug'lanayotgan suv miqdori bir necha barobar ko'pdir. SHu sababdan, Orol dengizi suvining balandligi ancha pastga tushib ketgan. Endi Orolni ilgarigi holatiga qaytarish uchun unga taxminan 50 km³ suv quyish kerak, bu degan so'z butun boshli Sirdaryo suvini to'liq quyish bilan barobardir.

Qor ko'chkisining sabablari va oqibatlari. Tog'larning tik yon-bag'irlaridan qor massasining pastlik tomon ag'darilib yoki sirpanib tushishiga tog' ko'chkisi deyiladi. Baland tog'larning ustiga ko'p qor yog'ib, uning qalinligi ortadi va o'z og'irlik kuchi ta'sirida zichlashib, qayta kristallanib, yonbag'irlilikka pastlikka qarab osilib turadi va natijada uning qalinligi oshgan sari turg'unligi susayib boradi. Kuchli shamol ta'sirida mana shunday qor massasi harakatga kelib pastlik tomon siljiy boshlaydi yoki ag'darilib tushadi. Qor ko'chkisida suriluvchi massaning hajmi bir necha ming m³ dan million m³ gacha tashkil yetadi. Qor ko'chkilar quruq yoki ho'l bo'lishi mumkin. Agar qorning ustki qismi biroz muzlagan bo'lib, uning ustiga qalin qor yog'ib pastga qarab siljisa, quruq ko'chki hosil bo'ladi. Agar qor yerigan suvga shimalib, uning tagi ho'llanishi natijasida pastga ag'darilishi ho'l ko'chki hosil bo'ladi. Ho'l ko'chkilar 20-50 km/soat tezlikda, quruq ko'chkilar esa 100 km/soat, ba'zan 300-400 km/soat tezlikda siljiydi. Qor ko'chkilar pastga qarab harakat qilganda, yon-atrofdagi qor massalarini hamda tog' jinslarini o'zi bilan surib ketadi. Mana shuning natijasida qor massasi kattalashib, hajmi bir necha mln. m³ ga, tezligi esa soatiga 250-350 km ga yetib, o'z yo'lidagi o'rmonlarni sindirib ketadi, imorat va inshootlarni vayron qiladi, oqibatda juda katta moddiy zararni keltirib, insonlar o'limiga sabab bo'lishi mumkin.

Katta hajmli qor ko'chkilar asosan 25-60⁰ li qiyalikda kuzatiladi. Sirti tekis, o't bilan qoplangan qiyaliklar qor ko'chkisi xavfli bo'ladigan joylar hisoblanib, butali, toshli joylar qor ko'chkisiga to'sqinlik qiladi. SHuning uchun o'rmonzorlarda qor ko'chkisi juda kam kuzatiladi. Masalan, 1990 yilning 13

iyulida Pomir tog'ining eng yuqori cho'qqisida yer silkinishi oqibatida katta hajmdagi qor massasi ko'chib, pastlikka 5300 m balandlikda joylashgan alpinistlar lageriga qulab tushgan va oqibatda 40 nafar odam qor ostida qolgan. 1999 yil 21 noyabrda ko'p miqdorda qor yog'ishi natijasida «Qamchiq» dovonining 157-167 km larida sodir bo'lган. Bu ofat oqibatida 29 odam halok bo'ldi, 19 kishi turli jarohatlar olgan va 73 kishi sovuqda uzoq muddat qolib ketgan. Favqulodda vaziyatlar vazirining buyrug'iga ko'ra tezkor guruhlar hodisa yuz bergen joyga yetib kelib, tegishli chora-tadbirlar ko'rildi. Ko'rildi tadbirlar oqibatida 34 ta turli rusumdag'i avtomobillar qor uyumi ostida qolganligi, 6 ta mashinani qor chuqurlik tomon surib tushirganligi aniqlanib zudlik bilan ular qutqarilgan. Ofat yuz bergen joyga Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari avariya qutqaruv bo'limlari, «Najotkor» Respublika qidiruv-qutqaruv markazi, CHirchiq shahri «Haloskor» maxsus harbiylashtirilgan qidiruv qutqaruv qismi o'z texnik vositalari bilan jalb qilinganlar. Ular yo'llarni qor uyumlaridan tozalab, odamlarni xavfsiz joylarga olib chiqilib, jabr ko'rganlarga birinchi tibbiy yordam va boshqa ko'maklarni ko'rsatganlar. Umuman, bu ofat oqibatida 400 ta transpor vositasi va 1200 dan ziyod yo'lovchi qutqarib qolning.

Hozirgi vaqtida tog'li hududlarda maqsadli qurilishlar (suv omborlari, geslar, dam olish uylari, davolanish maskanlari) qurilishi munosabati bilan qor ko'chkilar bo'lishi mumkin bo'lgan hududlar aniqlanib, o'rganilib tegishli tadbirlar qilingan. Qor ko'chkilarini oldini olish uchun muhandislik choralarini ko'rish (tog' yonbag'irlari tekislanib, supalar tashkil etish, daraxtzorlar barpo etish, harakatga keluvchi qor uyumlarini yo'qotish, to'siqlar o'rnatish va boshqa himoyalanuvchi vositalar qurish) talab etiladi.

Sel, uning xususiyatlari va talafotlari. Tog' hududlarida kuchli yomg'irlarning yog'ishi, muzlik va qorlarning tez yerishi natijasida hosil bo'lgan daryo toshqinlarini, tog' yon bag'rilarida nuragan tog' jinsi bo'laklarini suv oqimi bilan tekislikka tomon oqizib tushirilishi sel hodisasi deb yuritiladi. Sel oqimi massasining taxminan 50-60 foizi turli kattalikdagi tog' jinsi bo'laklaridan, o'simlik va daraxt bo'laklaridan iborat bo'ladi. Sel oqimining davomiyligi ko'pincha, 0,5-2 soatdan 12 soatgacha, tezligi 5-8 m/s dan 12 m/s gacha etishi mumkin, sel massasining zichligi esa 1,2-1,9 t/m³ ni tashkil etadi.

Sel oqimlarining tezligini 3 guruhga bo'lish mumkin: juda tez (100 ming m³ dan ko'p sel massasining harakati, 6-10 yilda bir marta), o'rtacha (10 dan 100 ming m³, 2-3 yilda bir marta) va kuchsiz (10 ming m³ dan kam). Bunday fizik ko'rsatkichlarga ega oqim juda katta kuch bo'lib, iqtisodiyot tarmoqlariga sezirarli zarar keltiradi, oqim yo'lida uchragan suv inshootlarini, yo'llarni, qishloq va shaharlarni, bog'larni, ko'priklarni vayron qilib ketadi, ulkan maydonlarni loy, qum, tosh qatlamlari bilan ko'mib tashlaydi.

Sel - arabcha so'z bo'lib, tog'lik hududlardagi suv toshqini ma'nosini anglatadi. **Sel** oqimlari o'zi bilan olib keladigan qattiq zarrachalarning o'lchamiga qarab uch guruhga bo'linadi:

- suv-toshli sellar;
- loyqa sellar;
- aralash sellar.

Er yuzasida yuz bergen ofatli sellarga misol qilib, 1934 yilining yangi yil kechasi AQSHning Los-Anjeles shahri atrofida kuzatilgan sel oqimini ko'rsatish mumkin. SHu kuni shaharga yaqin Kordelera tog'ida kuchli yomg'ir yog'ib, uning miqdori 538 mm.ni tashkil etgan. Yomg'ir tinishidan sal oldinroq tog'dan katta tezlikda suv toshqini pastga harakat qilgan. Bu suv toshqini 100 m masofagacha yoyilib unga yaqin bo'lган ikki shahar - Lyo Kreket va Montero shaharlariga katta talofat yetkazgan. Suv oqimi to'lqinining balandligi 6 m.gacha yetgach, o'z yo'lida 500 ta ko'priksi, bir qancha imoratlar va inshootlarni vayron qilgan, qanchadan-qancha odamlarni boshpanasiz qoldirgan.

Markaziy Osiyoda eng kuchli sel oqimlari Qozog'iston Respublikasining Olma-Ota shahridan o'tuvchi, shahar nomi bilan ataluvchi daryo vodiysida kuzatilgan. Masalan, 1921 yil 8 iyun kuni kechqurun yuz bergen sel oqimi natijasida shaharga olib kelingan tog' jinslari 100 mingta vagonga joy bo'lgan. Bu ofat natijasida 400 dan ortiq kishi halok bo'ldi. Sel oqimining vujudga kelishiga tog'lik hududlardagi qorlar va muzliklarning yerishi, kuchli yomg'ir yog'ganligi sabab bo'lgan.

Olma-Ota shahri va uning atrofida juda ko'p talofotli sel oqimlari kuzatilgan. Ulardan yana biri Medeo sel to'g'oni qurilgandan keyin, 1973 yil 15 iyul kuni ro'y bergen. SHu kuni kuchli yomg'ir ta'sirida baland tog'likdagi tabiiy ko'l to'g'onlarining buzilishi natijasida kuchli sel oqimi hosil bo'lgan. Bu oqim taxminan 2 soat davom etib, uning sarfi 2000-3000 m³/s ga etgan va Medeo to'g'oniga 400 000000 m³ sel massasi olib kelib tashlangan. Yertasi kuni sel qayta takrorlanganda Medeo seli to'g'ondan oshib ketishiga atigi 6 m masofa qolgandi. Agar sel to'g'ondan oshib harakatlansa, Olma-Ota shahriga juda katta xavf tug'dirishi mumkin edi. SHuning uchun buni oldini olish maqsadida to'g'ondagi suv asta sekin chiqarib yuborilib, to'g'onning balandligi 150 m gacha ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasining Toshkent, Qashqadaryo, Surxandaryo va Farg'ona viloyatlarining tog'lik xududlari sel ofati bo'ladigan zonalar hisoblanadi. Oxirgi 100 yil ichida O'zbekiston Respublikasi hududida 2500 dan ortiq sel oqimlari kuzatilgan. Bularidan 1400 dan ortig'i loyqa, 350 dan ortig'i suv-toshlik, 650 dan ortig'i aralash sellardir. Respublikamizning Farg'ona vodiysida, Toshkent oldi hududlarida sel oqimlari tez-tez kuzatilib turiladi. Sel oqimlari Respublikamiz hududida bahor mavsumida va yozning birinchi oyida yuz beradi. Bunga sabab hududimiz joylashgan mintaqaning tabiiy sharoiti bo'lib, bahor oylaridagi kuchli jala, yomg'irlar, haroratning issiq kelishi, tog'larda muzlik va qorlarning tez yerishi, daryo o'zani qiyaligining 3-5⁰ dan kattaligi, suv yig'ish maydonida zarrachalari bog'lanmagan bo'shoq tog' jinslarining mavjudligi asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi. Masalan, 1998 yil yozda havoning birdan issib ketishi natijasida Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyati tog'laridagi qorlarni yerishi tezlashib, buning oqibatida 1998 yilning 7 iyulidan 8 iyulga o'tar kechasi katta suv oqimi paydo bo'lgan. Bu oqim SHohimardon soyga qo'shilib, uning suv sig'imini 200 m³/s ga ko'paytirib yuborgan va kuchli oqim natijasida 52 ta xo'jalik, 36 ta dam olish maskanlari zarar ko'rkan. 8-9 iyul kunlari odamlarni SHoximardon qishlog'idan ko'chirish ishlari boshlangan. Bu ofat oqibatida 104 ta odam jasadlari, 68 ta har-xil hayvonlarning tanalari topilgan. Kuchli sel oqimi natijasida 15 km gaz o'tkazish, 14 km avto yo'l, 4 ta yirik avtomobil ko'prigi, 3 km suv o'tkazish

tizimlari, 3 km elektr uzatish tarmoqlari yaroqsiz holatga kelgan, 200 dan ortiq savdo shaxobchalari butunlay vayron bo'lgan. Bu tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishga 2000 ga yaqin fuqarolar, 438 ta texnikalar jalb qilingan.

Bular quyidagilardan iborat:

1. Sel bo'lishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarida doimiy kuzatish ishlari olib borish. Bunda suv yig'ish maydonida bo'shoq tog' jinslari yig'ilishining oldini olish, oqar suvlar oqimiga to'sqinlik qiluvchi tabiiy va sun'iy to'siqlardan tozalash ishlari;

2. Sel oqimi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarini muhofaza qilish, ya'ni bu maydonlarda o'simlik dunyosini saqlash, daraxtlar va butalarni kesish, maydonlarda shudgorlash va sug'orish ishlari olib borishni chegaralash;

3. O'rmon xo'jaliklarini rivojlantirish, ya'ni tog' yon-bag'rilarida butalar va daraxtlarning ekilishini yo'lga qo'yish talab etiladi, chunki bu o'simliklar tog' jinslari qatlamlarini mustahkam ushlab turadi, qor yerishini sekinlashtiradi, yer yuzasini yuvilishdan saqlaydi;

4. Tog'li hududlardagi daryolarning o'zanida suv oqimini boshqaruvchi inshootlar qurish, tabiiy, sun'iy to'g'onlarni tartibga solish, temir yo'l, avtomobil yo'llari ostiga sel o'tkazuvchi katta diametrli quvurlar yotqizish ishlari tashkil etish.

Sel oqimiga qarshi kurashish uslubini tanlash maqsadida maxsus muhandis-geologik qidiruv ishlari olib boriladi. Olingan natijalardan (har tomonlama tahlil qilish asosida) o'rganilayotgan hudud uchun xarita tuziladi.

Bu xaritada:

- sel kuzatiladigan;
- sel kuzatilishi mumkin bo'lgan;
- sel kuzatilmaydigan maydonlar ajratiladi.

Sel kuzatiladigan va kuzatilishi mumkin bo'lgan joylarning iqlim sharoitiga, geologik o'zgarishlarga, vujudga kelishi mumkin bo'lgan sel oqimi kuchiga qarab kurashish usullari tanlanadi, tadbir choralarini belgilanadi. Tog'lik hududlarda shaxsiy imoratlarni qurish ishlari sel xavfi xaritasi bilan tanishgan holda, maxsus tashkilotlar ruxsati asosida olib borilishi kerak. **Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki**, yuqorida aytilgan hamma ofat turlari O'zbekistonga xos xarakterlidir. SHuning uchun shu o'lkada yashovchi har bir fuqaro yuqoridagi aytilgan tabiiy ofatlardan qo'rmasdan, esankiramasdan, yuqori tashkilotlar, fuqarolar muhofazasi organlari tomonidan beriladigan har bir ko'rsatma, yo'riqnomalarga qat'iyan rioya etib, harakat qilish zarur. Bunda hech qanday o'zboshimchalik, odamlarni bezovtalantirish, xavfsirash, faqat o'z manfaatini ko'zlaydigan harakatlarni qilish ta'qiqlanadi. Qaerda yuqori intizom, chuqur ishlangan omillar bo'lsagina, o'sha yerda ofat oqibatlari tugatilib, hayot tezda o'z iziga tushib ketadi.

8-ma’ruza. Avariylar turlari, ularni kelib chiqish sabablari (2 soat)

O’quv savollari:

1. Fuqaro muhofazasi boshqarmalarining va avariya-qutqaruv ishlari (AQI)ni o’tkazish haqidagi qarori.
2. Iqtisodiyot ob’ektlarining favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasidagi majburiyatlari.
3. Fuqaro muxofazasi kuchlari .

Barcha pogonalardagi fuqaro muhofazasi boshqarmalarining va avariya-qutqaruv ishlari (AQI)ni o’tkazish xakidagi qarori oldindan, tinchlik davrida qabul qilinadi va u tinchlik davriga va qarbiy harakatlar davriga mo’ljallangan fuqaro muhofazasi rejalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq, fuqaro muhofazasi boshligining qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlar o’tkazish haqida oldindan qabul qilingan qarori taxminiy tuzilgan buladi. SHunga qaramay, u ishlarni o’tkazishga ta’sir ko’rsatadigan yil fasli, kecha — kunduz vaqt, meteorologik va boshqa omillar hisobga olingan amaldagi sharoitga muvofiq o’tkazish boshqaruv organlari ishini engillashtiradi.

Qutqaruv va shoshilinch ishlarni bajarish uchun tinch vaqtida iqtisodiet ob’ekti boshlig’ining buyrugi bilan guruhlar tuzilgan bo’lishi kerak. Har kaysi tarmoq boshchiligidagi guruxlar, favquloddagagi vaziyat yuz berganda, o’z vazifalarini bajarishga kirishishlari lozim. Qutqaruv ishlarni olib borishga kerakli kuchlar va vositalar aniqlanadi. Maxalliy davlat xokimiyyati organlarining favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasidagi vakolatlari belgilanadi.

Maxalliy davlat xokimiyyati organlari favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasida:

favqulodda vaziyatlar chog’ida axrlini va hududlarni muxrfaza qilish buyicha harakatlar rejasini ishlab chikadilar;

aholining va hududlarning muxofazalanishiga oid axborotlar belgilangan tartibda tuplanishi va almashinilishini, shuningdek favqulodda vaziyatlar taxdidi borligi yoki ruy bergenligi to’g’risidagi axrli uz vaktida vokif va xabardor etilishini amalga oshiradilar;

moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratadilar, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini, moliyalashni amalga oshiradilar;

idoraviy mansubligidan kati nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda barqaror ishlash imkoniyatini oshirishga yordamlashadilar;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish buyicha korxona, muassasa va tashkilotlar kuchlari va vositalarining shay xolda turishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

avariya, xalokat, tabiiy ofatlar sodir bo’lgan zonalarda qutqaruv ishlari va kechiktirib bo’lmaydigan boshka ishlarni amalga oshirish uchun avariya-qutqaruv kuchlari (shu jumladan tezkor harakat bo’linmalar) va maxsus tuzilmalarning doimo shay bo’lib turishini tashkil etadilar;

avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshka ishlarni tashkil etadilar hamda amalga oshiradilar, shuningdek bunday ishlar o'tkazilishi chog'ida jamoat tartibi saklanishiga kumaklashadilar;

Konun xujjaligiga muvofik boshka vakolatlarni amalga oshiradilar.

Iqtisodiet ob'ektlarining favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasidagi majburiyatlari belgilangan.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish sohasida:

xodimlar hamda ishlab chikarish va ijtimoiy ob'ektlarni favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish buyicha zarur choralarmi rejashtirishlari, moliyalashlari va amalga oshirishlari;

xavf manbai yukori bo'lgan ob'ektlar xavfsizlygi to'g'risida belgilangan tartibda deklaratсия takdim etishlari;

xodimlarni favqulodda vaziyatlar sharoitida xarbiylashtirilmagan tuzilmalar tarkibida muxrfazalanish usullariga va harakat qilishga o'rgatishlari;

xabar berish maxalliy tizimlarini yaratishlari va doimo shay holatda saklab turishlari hamda favqulodda vaziyatlar taxdidi borligi yoki ruy bergenligi to'g'risida xodimlarni uz vaktida xabardor kil ishlari;

favqulodda vaziyatlar sharoitida ob'ektlar ishi hamda xodimlar xaet faoliyati barqaror kechishini ta'minlashlari;

muxandislik-ximoya inshootlari, zaruratga qarab, oldindan barpo etilishini ta'minlashlari hamda ularni doimo shay holatda saklab turishlari;

favqulodda vaziyatlar ruy berish extimolini nazarda tutib, belgilangan tartibda moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish kuchlari va vositalari yaratilishini, tayyorgarlikdan o'tkazilishini hamda shay bo'lib turishini ta'minlashlari;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish rejalariga muvofik. Uz tasarrufidagi ob'ektlarda avariya-qutqaruv ishlari o'tkazilishini ta'minlashlari;

belgilangan tartibda ixtisoslashgan xizmatlar va tuzilmalarni yaratishlari, ularni shaxsiy tarkib, Texnika va anjom bilan tuldirishlari;

belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o'tkazishlari va odamlarni joylashtirish uchun oldindan bazalar tayyorlab kuyishlari;

belgilangan tartibda favqulodda vaziyatlardan muxrfaza qilish sohasida axborotlar takdim etishlari shart.

Fuqarolar uzini uzi bonxarish organlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishdagi ishtiroti;

Fuqarolarning uzini uzi boshqarish organlari: aholi punktlari, suv ta'minoti manbalari, ijtimoiy va madaniy obektlarning sanitariya va ekologik holati ustidan nazorat amalga oshirilishiga yordam beradilar;

fuqarolarni favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga jalb kiladilar;

konun xujjaligiga muvofik boshka choralarmi amalga oshiradilar. Avariya qutqaruv ishlari fani fuqaro muxofazasi maxsus tadbirlarining bajarilishini ta'minlash hamda ushbu maqsadlarda kuch va vositalarni tayyorlash uchun Respublika, viloyat, tuman, shahar, shuningdek, ob'ekt mikyosidagi fuqaro

muxrfazasi xizmatlari tashkil etiladi. Fuqaro muxofazasi xizmatlarining turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqaro muxofazasi kuchlari fuqaro muxofazasi kushinlari, tizimlaridan tarkib topadi. Fuqaro muxofazasi kuchlari va vositalarining tarkibi, ularning tarkibiy tuzilishi, shuningdek, muxofaza turlari faoliyatining boshka jixatlari O'zbekiston Respublikasi fuqaro muxofazasi boshligi tomonidan belgilab kuyiladi.

Fuqaro muxofazasi vazifalarini xal etishda FVV kuchlaridan tashkari O'zbekiston Respublikasi kurolli kuchlarining qutqaruv tizimlari, kismlari ham jalb etilishi mumkin. Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muxofazasining kushinlari O'zbekiston Respublikasi fuqaro muxofazasi kuchlarining asosini tashkil etadi.

9-ma’ruza. Tabiiy ofatlarni, avariya va halokatlarni oldini olish bo’yicha chora-tadbirlar. Iqtisodiyot obyektlaridagi avariylar va ularning atrof-muhitga ta’siri (2 soat)

O’quv savollari:

1. QIni o’tkazishda kerakli texnik vositalar va kuchlarni xisobga olish.
2. Radiatsion sharoitga baxo berish.

AQIni o’tkazish uchun fuqaro muhofazasi boshqarmalarining qarori, sharoitga berilgan bahodan kelib chiqqan xulosalarga asoslanadi. SHu maqsadda hamma fuqaro muhofazasi organlari tabiiy ofatlar, avariylar, halokatlar sodir bo’lganda, uz ixtiyoridagi umumiy va maxsus razvedka kuchlari va vositalarining hamma imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanib, tasarrufidagi va uzaro hamkor organlardan, harbiy qumondonlik organlaridan, qushnilardan, shuningdek, yuqoridagi fuqaro muhofazasi organlaridan va boshqa manbalardan sharoit haqida ma’lumot tuplashni tashkil etadi.


Favqulodda murakkab sharoit razvedka faoliyatini jiddiy qiyinlashtirib va AQI o’tkazish uchun qarorga kelishga zarur bo’lgan tulik, hamma ma’lumotlarni qisqa mudadtda olishga imkon bermay quyishi mumkin. Bunday holda etishmay turgan ma’lumotlar sharoitga ta’sir etadigan hamma omillarni — zilzila joyi, vaqt, kuchini, toshqin (suv bosish) xarakterini, yil faslini, kecha —kunduz vaqtini, meteosharoit va boshqalarni hisobga olib, sharoitni oldindan taxminlash yuli bilan olinishi kerak.

Zilzilalarning, toshqinlarning koordinatalari xaqidagi ma’lumotlar, meteoma’lumotlar va bopqa ma’lumotlar fuqaro muhofazasi organlaridan, qul ostidagi va qushni organlardan, qurolli kuchlar harbiy qushilmalari va birlashmalarning pggablaridan, fuqaro muhofazasi boshqaruv organlaridan x.ama maxsus tayyorlangan fuqaro muhofazasi maskanlaridan olinish mumkin.

SHaroit xaqidagi ma’lumotlar tahliliga (ularga berilgan baxoga) asosan fuqaro muhofazasi xizmatlari boshqaruvi qabul qiladigan qarorlar yuzasidan xulosalar va takliflar tayyorlab, fuqaro muhofazasi boshligiga axborot beradi. Fuqaro muhofazasi boshligiga beriladigan xulosalar va takliflarda zaruriy ma’lumotlar to’liq bo’lishi kerak. SHaroitga baho berishda esa fuqaro muhofazasi boshlikdari maxsus ma’lumotlarni urganib chiqadi.

SHikast uchogada (tabiiy ofat, avariya, halokat joyida) vazifalarni tushunib olish va sodir bo’lgan sharoitga baho berish yuzasidan shaxsan ishslash natijasida, shuningdek fuqaro muhofazasi organlarining xulosalari va takliflarini hisobga olib, fuqaro muhofazasi boshliqlari shikast (zararlanish) uchoqlarida AQIni o’tkazish hakida qarorga keladi. Qarorga kelishni ta’minlash uchun fuqaro muhofazasi boshligi boshqarish xizmatlari va boshqa organlari bilan birgalikda sharoitlarni urganib, ularga baho berib chiqadi.

AQIni o'tkazishda kerakli Texnik vositalar va kuchlarni xisobga olish zaruriyatidan kelib chiqib, ularni ta'rifini quyidagi shaklda (shakl ...) va rasmida (rasm ...) keltirish mumkin.



Texnik xizmatalarning tashkil topishi

Radiatsion sharoitga baxo berishda radoaktiv bulut harakatining tezligi va yunalishlari; radoaktiv zaharlanish zonalarining chegaralari; evakuatsiya marshrutlaridagi fukaro muhofazasi kuchlari tez harakatlanadigan marshrutlardagi va qutqarish ishlari o'tkazilishi kerak bo'lgan xalk, xujaligi ob'ektlaridagi radiatsiya darajasi; ishchilar, xizmatchilar fuqaro muhofazasi tuzilmalarining va boshqa aholining bo'lishi kuzda tutiladi.

10-ma'ruza. Razvedka ishlari. Tabiiy ta'minotni tashkillashtirish (2 soat)

O'quv savollari:


1. Qutqaruv hamda shoshilinch avariya-tiklash ishlari.
2. Qutqaruv ishlarini olib borishda kerakli kuchlar va vositalar.
3. Hayot xavfsizligini ta'minlovchi asbob- uskunalar. Tuzilmalar ishlarini tashkillashtirish.

Qutqaruv hamda shoshilinch avariya-tiklash ishlari murakkab sharoitlarda vayronagarchilik va nurab tushishi extimoli bo'lgan xollarda, kuchli yong'inlarda yer kimirlaganda, radioaktiv, ximiyaviy va bakteriologik zararlanganda, takroriy zarba ostida territoriyani suv, zaxarli moddalar bosganda o'tkaziladi.


Qutqaruv va shoshilinch avariya-tiklash ishlariga kuyidagilar kiradi: zaxarlangan uchastkalarda va uyum joylarda qutqaruv kolonnasi uchun yullar ochish elyoktr, gaz va boshka tarmoqlarda avariya holatlarini tugatish kulab tushishi extimoli bo'lgan kurilmalarni mustaxkamlash va tiklash kiradi Bunday ishlar uzluksiz kecha va kunduz, xar kanday ob-xavo sharoitlarida qisqa vakt ichida bajarilishi kerak. Qutqaruv ishlarini muvaffakiyatli o'tkazish uchun razvedkani uz vaktida tashkil etish kerak: bor kuch va qutqaruv vositalarini tezlik bilan ishga xozirlash, maxsus guruxlar, tizilmalar va aholining aktiv ishtirokini tashkil qilish zarur.

Qutqaruv va shoshilinch ishlarini bajarish uchun avvaldan ob'ekt boshlig'ining buyrugi bilan guruhlar tuzilgan bo'lishi kerak. Har kaysi tarmoq boshchiligidagi guruxlar, favquloddagi vaziyat yuz berganda, o'z vazifalarini bajarishga kirishishlari lozim. Qutqaruv ishlarini olib borishda kerakli kuchlar va vositalardan foydalilaniladi (shakllarda ko'rsatilgandek).

Фавқулодда вазиятлар вазирлигига бўйсинувчи республика ихтинослаштирилган тузилмалари



Avariya qutqaruv ishlarini olib borish taktikasi



Avariya –qutqaruv uskunalarining tarkibi:

Himoya kiyimlari va himoya jihozlari.

O't o'chirish asboblari.

Razvedka va nazorat asboblari.

Tibbiy reanimatsiya jihozlari.

Yoritish, signalizatsiya va aloqa vositalari.

Qutqaruv asbob-uskunalarini:

SHuning uchun zararlangan zonani kattaliklarini topish uchun dastlab havoning barqarorlik darajasi (inversiya, izotermiya, konveksiya) topiladi.

Inversiya – bu yer yuzasidan yuqoriga balandlik ortishi bilan havo haroratining ko'tarilib borishidir. U yer bag'irlab joylashgan qatlamlarda kuzatiladi. Bu hodisa qo'proq shabadasiz tunlarda, yer yuzasidan issiqlik jadal ajralib chiqishi natijasida sodir bo'lib yerning ustki qatlaming va yer bag'rilib joylashgan havo qatlaming sovishiga olib keladi. Inversiya qatlami o'nlab – yuzlab metrni tashkil qiladi. Inversiya qatlamidagi havo haroratining ko'tarilishi 15-200S gacha bo'lishi kuzatiladi.

Inversiya – qatlami atmosferada ushlab qoluvchi qatlam bo'lib, havoning tik harakatiga to'sqinlik qiladi va natijada uning ostidagi suv bug'i, chang, tutun, bulutlar yig'ilib qoladi. Inversiya o'tkir zaxarli kimyoviy moddalar bug'larining tarqalib ketishiga to'sqinlik qiladi. Inversiya ochiq, havoda, shamol tezligining

kichik qiymatlarida (4 m/s gacha), quyosh botishidan taxminan bir soatlar oldin boshlanib, quyosh chiqqandan keyin bir soatlar davomida tarqalib ketadi.

Izometriya – havo haroratining muntazam turg'unligi bilan xarakterlanadi. U ko'pincha havo bulut paytlarida, yertalabki va kechki soatlarda, yer yuzasidan 20-30m oralig'ida paydo bo'ladi. Izometriya ham inversiya kabi o'tkir zaxarli kimyoviy moddalarini bug'larini yer bag'irlab joylashgan havo qatlamida uzoq muddat ushlanib qolishiga sabab bo'ladi.

Konveksiya – atmosfera qatlamida havoning vertikal almashuvidir. Konveksiya tufayli momaqaldoqlar ro'y berishi, Sel, do'l yog'ishi mumkin. Ba'zan atmosfera fronti (oqimi) bo'lib, issiq va sovuq havo qatlami ko'chadi, pastdan yuqoriga issiq havo ko'tariladi va har 100m balandlikka ko'tarilganda 10S ga soviydi, lekin kondensiya, inversiya tufayli havo juda baland ko'tarilishi mumkin emas. Termik konveksiya yoz kunlari quruqlikda, qish kunlari dengiz ustida hosil bo'ladi.

Konveksiya sharoitida yuqoriga ko'tarilayotgan havo oqimining tezligi bir necha m/s, ba'zan 20-30 m/s gacha etishi mumkin. Bu oqim zararlangan (zaxarlangan) havo bulutning tarqalishiga va atmosfera o'tkir zaxarli kimyoviy moddalar konsentratsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Havo ochiq hollarda quyosh chiqqanlan taxminin ikki soatdan so'ng tarqalib ketadi.

Havoning vertikal barqarorlik darajasi 2-jadvalda keltirilgan.

O'tkir zaxarli kimyoviy moddalar konsentratsiyasi bilan zaxarlangan shamolning tezligi 1 m/s bo'lganda tarqalish chuqurligi (CH) 3-jadvalda keltirilgan.

Kimyoviy zaxarlangan hududning kengligi (K) quyidagi kattaliklar bilan aniqlanadi:

- | | |
|----------------|------------------|
| - inversiyada | - K = 0,03 * CH3 |
| - izotermiyada | - K = 0,15 * CH3 |
| - konveksiyada | - K = 0,8 * CH3 |

Bu yerda CH3 – zaxarli modda konsentratsiyasi bilan zararlangan havoning tarqalish chuqurligi. Kimyoviy zaxarlangan hududning yuzasi (5) teng tomonlari uchburchakning yuzasi deb qabul qilinadi va chuqurligi bilan kengligining yarmi olinadi:

$$S = 1/2 * CH3 * K3 \text{ km}^2$$

Zararlangan havoning biror joyga etib kelishi vaqt o'tkir zaxarli kimyoviy moddalar qo'yilgan joydan ma'lum manzilgacha (inshootgacha) bo'lgan masofa "K"ning havo oqimi yordamida esayotgan bulutning o'rtaa tezliliga nisbati teng. Zararlangan havo bulutning o'rtacha tezligi (Vo'r).

Zararlangan havoning marraga etib kelishi vaqtini quyidagicha formuladan aniqlaymiz:

$$t = R / Vo'r, \text{ min}$$

O'ZM ning zaxarlanish vaqt uning bug'lanish vaqtiga teng bo'ladi so'ngra qabul qilib, aniqlanadi. Ishchi va xizmatkorchilarining yo'qotilishi, ishga yaroqsizligi va xalok bo'lishi ularning ochiq, maydonagi soniga, himoyalanish darajasi va shaxsiy himoya vositalarini vaqtida qo'llay bilishga bog'liq.


Kimyoviy zararlangan hududlar ish xujjaligiga ma'lum mashtabda chizilad. O'tkir zaxarli kimyoviy moddalarining qo'yilish joyi va kimyoviy zararlangan

hudud chegarasi ko'k rang bilan, zararlangan maydon hududi esa sariq rang bilan bo'yalad.

Kiyoviy zararlanish zonasida qutqaruv ishlari.

Kimyoviy zararlanish hududida ob'ektning fuqaro muxofazasi boshligi kul ostidagilarni kimyoviy zaxarli moda turini, uning tarkalish yunalishini va boshka zaruriy ma'lumotlar iugrisida xabardor kiladi shuningdek fuqaro muxofazasi shtab boshligi zaxarlangan xudu dva undagi odamlarni ximoya qilish usullari va tadbirlarini aniklaydi. Zararlanish uchog'idagi razvedka guruxlari uchun vazifalar belgilab beriladi. Qutqaruv ishlarini olib borish uchun shoshilinch kuch va vositalar tayyorlanadi. Zararlanish uchog'ida uyushtirilgan razvedka guruxi kimyoviy zararlanish o'chog'ini ulchamlarini aniqlaydi, zaxarlanish darajasini vash u asosida eng yakin, kulay yollar bilan odamlarni xavfli zaxarlangan zonadan olib chikib ketish yollarini belgilaydi.

Ximoya inshootlarda yashiringan odamlarni olib chikib ketish vakti belgilangandan sung ular zaxarlanmagan hududlarga olib chikib ketiladi. SHu bilan birga shaxsiy ximoya vositalarini echish vaktini elon kilinadi. Kimyoviy zaxarlanish zonasining va shikastlanish manba'larining chegaralariga «Zaxarlangan» degan yozuvlar o'rnatiladi (1 rasm).



Rasm. Kimyoviy zaxarlanishda qo'yiladigan maxsus belgilar

Fuqaro muxofazasi boshligi razvedka ma'lumotlariga tayanib, ishga jalg etilgan kuchlarga vazifalar beradi, shaxsan uzi ximoyaviy zararlanish oqibatlarini tugatish choralarini kuradi va fuqaro muxofazasi bo'linmalariga ishni olib borilishida bevosita raxbarlik kiladi. Kimyoviy zararlanishning tugatilishi uchun barcha zaruriy tuzilmalar kechiktirilmasdan ishga jalg kilinadi, birinchi navbatda sanitar drujinalar, zararlantirish komandalari, qishloq xujalik xayvonlari va usimliklarni ximoya qilish fuqaro muxofazasi gruppalarini, jamoat tartibini saqlash va boshka bo'linmalar kechiktirilmasdan ishga jalg etilishi kerak. Yigma komandalarga (gruppalarga) kimyoviy zaxarlanishga karshi ximoya vositalari, qutqaruv ishlari olib boriladigan uchastkalari, vazifalar, degazatsiya olib boriladigan rayonlar va ko'rilmalar ko'rsatiladi.

Maxsus ishlov punktlari zaxarlanmagan territoriyada zararsizlantirish stansiyalari yakin bo'lgan yerlarda tashkil qilish tavsiya etiladi.

Mavzu: O'ta zaxarli kimyoviy moddalarini ishlab chiqarishda va saqlashda sodir bo'lgan avariyalarni bartaraf qilishda qutqaruvchilarining harakati (2 soat)

O'quv savollari

1. Zaxarlovchi moddalar va ularning tasnifi.
2. KTEZM inson organizmiga ta'siri

Hamma zaharlovchi moddalar o'zining ta'sir qilishiga, qanday maqsadda ishlatalishiga hamda boshqa xususiyatlariga qarab turlicha tasnif qilinadi. SHulardan toksikologik, taktik va kimyoviy tasniflar keng qo'llaniladi.

Toksikologik (klinik) tasnif

Zaharlovchi moddalar ta'siri natijasida paydo bo'lgan klinik simptomlarga, patologik jarayonning xususiyatiga, tibbiy yordam ko'rsatish, davolash usullari hamda tashkiliy ishlarning umumiyligiga qarab zaharlovchi moddalar quyidagi o'xshash guruhlarga bo'linadi:

1. Asablarni falajlash ta'siriga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar: zarin, zoman, V-gazlari.
2. Terida yara paydo qilish ta'siriga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar: iprit, azotli ipritlar, lyuizit.
3. Psixokimyoviy ta'sirga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar: lizergin kislotaning dietilamidi (DLK), BZ (Bi-zet).
4. Ta'sirlash xususiyatiga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar:
 - a) yuqori nafas yo'llari va burun shilliq pardasiga ta'sir etuvchi zaharlovchi moddalar (sternitlar): adamsit, difenilxlorarsin, difeniltsianarsin;
 - b) ko'z shilliq pardasiga ta'sir etuvchi zaharlovchi moddalar (ko'zdan yosh oqizuvchi yoki lakrimatorlar): brombenziltsianid, xloratsetofenon, Si-es (CS) va Si-ar (CR) moddalar.
5. Umumiy zaharlash ta'siriga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar: tsianid kislota, xlortsian.
6. Bo'g'uvchi ta'sirga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar: fosgen, difosgen.

Harbiy-taktik tasnifi. Bunda zaharlovchi moddalar ta'sir qilish xususiyatiga va natijasiga qarab ikki guruhgaga bo'linadi:

-o'ldiruvchi zaharlovchi moddalar (asablarni falajlovchi, terida yara paydo qiluvchi, umumiy zaharlovchi va bo'g'uvchi ta'sirga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar);

-vaqtinchcha safdan chiqaruvchi zaharlovchi moddalar qo'llanilganda harbiy qo'shinlarning ish faoliyati pasayadi (psixokimyoviy va ta'sirlash xususiyatiga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar).

Zaharlovchi moddalar zaharlilik xususiyatiga qarab ikki asosiy guruhgaga bo'linadi:

-zaharlanishning klinik manzarasini tez yuzaga chiqaruvchi zaharlovchi moddalar;

-zaharlanishning klinik manzarasini sekin rivojlantiruvchi zaharlovchi moddalar.

Tez ta'sir qiladigan zaharlovchi moddalarga zarin, zoman, V-gazlari, tsianid kislota, xrortsian, shuningdek ko'z va yuqori nafas yo'llari shilliq pardasini ta'sirlovchi zaharlovchi moddalar kiradi.

Bu moddalar organizmga ta'sir qilganda zaharlanish manzarasi bir necha daqiqa ichida rivojlanib (fosfororganik zaharlovchi moddalar, tsianid kislota) 1-10 daqiqa ichida o'lim ro'y beradi.

Sekin ta'sir qiladigan zaharlovchi moddalarga iprit va fosgen kiradi.

V-gazlari teriga ta'sir qilganda klinik alomatlari sekin rivojlanadi.

Bu moddalar organizmga ta'sir qilganda zaharlanish alomatlari mutlaqo yuzaga chiqmasdan yashirin davr kuzatilishi mumkin.

Bu davr bir necha daqiqadan (V-gazlari) bir necha soatgacha (iprit, fosgen) cho'zilishi mumkin.

Kimyoviy qurol qo'llanilgan hududda kimyoviy moddalardan zaharlanish o'chog'i hosil bo'ladi, uning o'lchami ishlatilgan zaharlovchi modda (ZM) miqdoriga, ZM ning turiga, ishlatish usuliga hamda ob-havo sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Zaharlovchi moddalar o'zining zaharlash xususiyatini qancha vaqt saqlay olishiga qarab chidamli zaharlovchi moddalar va chidamsiz zaharlovchi moddalarga ajratiladi.

CHidamli zaharlovchi moddalar - bular suyuq moddalar bo'lib, yuqori qaynash haroratiga (150°C dan yuqori) ega.

Ishlatilganda juda sekinlik bilan bug'lanadi va uzoq vaqtgacha (bir soatdan bir necha kecha-kunduzgacha, qish vaqtida haftalab) saqlanib turadi.

Bu guruh zaharlovchi moddalarga fosfororganik zaharlovchi moddalar (zarin, zoman, V-gazlari) va terida yara paydo qiluvchi moddalar (iprit, azotli iprit, lyuizit) kiradi.

SHuni esda tutish kerakki, qo'llanilgan zaharlovchi moddalarning chidamliligi ularning faqatgina fizikaviy va kimyoviy xossalariga bog'liq bo'lib qolmasdan, ularning ishlatish usuliga, ob-havo sharoitiga va joylarning rel'efiga ham bog'liq bo'ladi.

Agar havo va yerning harorati 10°C ga ko'tarilsa, zaharlovchi moddalarning bug'lanishi ikki marta tezlashadi.

SHamol paydo bo'lganda ham bug'lanish jarayoni tezlashadi.

Zaharlovchi moddalar o'rmon, daraxtzor, ekin ekilgan joylarda, jarliklarda ochiq joylarga qaraganda 7-10 barobar uzoq saqlanib qoladi.

CHidamsiz zaharlovchi moddalar – bu moddalar ham suyuqlik holida bo'lib, qaynash harorati juda past bo'ladi. Zaharlilik xossasini ochiq joylarda bir necha daqiqagacha saqlaydi. SHuning uchun asosan havoni zaharlash maqsadida qo'llaniladi. Bu moddalar qo'llanilganda tez bug'lanib, zaharli modda aralashgan bulut hosil bo'ladi, bunday bulutlar shamolda ko'chib, ba'zan 10-15 km gacha yetib boradi. Harakatlanish yo'llarida binolar ichiga kiradi, ko'chalar, hovlilar, yerto'lalalar, jarlik va shamol kam tegadigan boshqa joylarda turib qoladi. Bu guruhdagi moddalarga fosgen, difosgen, tsianid kislota, xlortsian kiradi.

Kimyoviy tasnifi

Zaharlovchi moddalar kimyoviy tuzilishi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

-fosfororganik birikmalar - zarin, zoman, V-gazlari, binar fosfororganik zaharovchi moddalar;

-galoidlangan sulfidlar, iprit va uning analoglari;

-tarkibida marginush bo'lgan birikmalar (arsinlar)- lyuizit, adamsit, difenilxlorarsin, difeniltsianarsin va boshqalar;

-ko'mir kislotasining galoidlangan hosilalari – fosgen, difosgen;

-nitrillar - tsianid kislota, xlortsian, CS;

-benzil kislota hosilalari (benzilatlar) –BZ.

Zaharovchi moddalarning fizikaviy va kimyoviy xossalari

Zaharovchi moddalarga shunday moddalar kiradiki, ular faqat yuqori toksik xususiyatga ega bo'lmay, balki ommaviy shikast yetkazuvchi qurol sifatida ishlatishga imkon beradigan bir qator fizikaviy va kimyoviy xossalarga ham ega bo'ladi.

Qaynash va suyuqlanish harorati zaharovchi moddaning ta'rifida asosiy o'rin egallaydi.

Zaharovchi moddaning uchuvchanligi uning qaynash haroratiga bevosita bog'liq. Ko'pchilik zaharovchi moddalar suyuqlik holatida bo'ladi, bu suyuqliklarning qaynash haroratiga qarab shartli ravishda past haroratda qaynaydigan va yuqori haroratda qaynaydigan moddalarga ajratish mumkin. Past haroratda qaynaydigan zaharovchi moddalar tez bug'lanadi va havoda yuqori kontsentratsiyani hosil qiladi, lekin ular ishlatilgan joyida qisqa vaqt saqlanib qoladi. Yuqori haroratda qaynaydigan zaharovchi moddalar ishlatilganda, juda sekin bug'lanadi, ishlatilgan joylarida uzoq muddatgacha saqlanishi tufayli zaharlash xususiyati kuchli bo'ladi.

Zaharovchi moddaning uchuvchanligi. Bu ma'lum haroratdag'i va havo bosimidagi zaharovchi moddaning havodagi to'yungan maksimal miqdoridir.

Zaharovchi modda bug'lari bilan havoni to'yintirishga maxsus sharoitlardagina yerishish mumkin, shuning uchun jang maydonida zaharovchi modda qo'llanilganda ularning havodagi kontsentratsiyasi uchuvchanligiga qaraganda ancha past bo'ladi. Odatda, uchuvchanlik 1 litr havoda milligramm hisobida (mgg' 1) o'lchanadi. Zaharovchi moddalarning uchuvchanligi, uning qaynash harorati va bug'larining qattiqligiga bog'liq, shuning uchun qaynash harorati past bo'lgan moddalar (fosgen, tsianid kislota) tez bug'lanib ketadi, yuqori haroratda qaynaydigan moddalar sekinlik bilan bug'lanadi. Bu ko'rsatkichlar zaharovchi moddalar qo'llanilgan joyda turg'unligi yoki beqarorligini ko'rsatadi.

Zaharovchi modda bug'larining zichligi bir litr bug' yoki gazning bir litr havoga nisbati bilan belgilanadi. Masalan, fosgen bug'ining zichligi 3,5 ga teng. Bug'lari past zichlikka ega bo'lgan zaharovchi moddalar va gazlar atmosferada tezda tarqalib ketadi, bu esa yer yuzida uzoq muddat jangovar kontsentratsiyasini saqlab turishga to'sqinlik qiladi. SHuning uchun tsianid kislota (kuchli zaharovchi ta'sirga ega bo'lganligiga qaramay) jang maydonlarida keng qo'llanilmagan. Birinchi jahon urushida va hozirgi kunda tabelli holda saqlanib kelayotgan zaharovchi moddalarning zichligi havoga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Yuqori zichlikka ega bo'lgan zaharlovchi moddalarning bug'i uzoq vaqt shamol tegmaydigan joylarda, chuqurliklarda, jarliklarda, xandaqlarda, transheyalarda va boshqa yerlarda saqlanib qoladi.

Suyuq zaharlovchi moddalarning solishtirma og'irligi suv havzalarining zaharlanish darajasini baholashda katta ahamiyatga ega. Yuqori nisbiy og'irlikka ega bo'lgan zaharlovchi moddalar uzoq vaqt ichida suv havzalarining eng pastki qatlamlarida saqlanib turadi.

Gidrolitik turg'unliligi zaharlovchi moddalarning nam joylarda va yomg'ir yog'ayotgan vaqtarda uzoq vaqt saqlanib qolishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, zaharlovchi moddalarning gidrolizlanmasligi yoki gidroliz reaktsiyalariga turg'unligi, zaharlangan joy, inshootlar, harbiy texnika va harbiy mulklarni degazatsiya qilishni qiyinlashtiradi.

Zarin, zoman kabi zamонавиу yuqori toksik zaharlovchi moddalar yuqori gidrolitik turg'unlik xossasiga ega.

Zaharlangan joylarni va harbiy mulklarni degazatsiya qilish nuqtai nazaridan **kislota va ishqorlarga turg'unligini aniqlash** katta ahamiyatga ega.

Masalan, zarin va zoman ishqorlar bilan yaxshi degazatsiya qilinadi (novshadil spirti, o'yuvchi natriy).

Fosfororganik zaharlovchi moddalar guruhiga kiruvchi V-gazlari esa ishqorlar ta'siriga ancha turg'un (bardoshli), shuning uchun bu moddalarni degazatsiya qilishda tarkibida faol xlor saqlovchi moddalar (kaltsiy gipoxlorit, xloramin, dixloramin va boshqalar) qo'llaniladi.

Odatda, zaharlovchi moddalarning ko'pchiligi ishqorlar ta'siriga turg'un (bardoshli) bo'ladi.

Oksidlovchi va asli holiga qaytaruvchi moddalarga turg'unlik jangovar zaharlovchi moddalarning eng muhim xossasidir.

Zaharlovchi moddalarning molekulaside ro'y beradigan o'zgarishlar zaharlovchi moddalarning zaharlilik xossasini qisman yoki to'liq yo'qolishi bilan namoyon bo'ladi. SHuning uchun zaharlovchi moddalarni degazatsiya qilishda qo'llaniladigan moddalar kuchli oksidlovchi va asliga qaytaruvchi xossalarga ega. Keng tarqalgan kuchli oksidlovchi xossaga ega bo'lgan degazatorlarga xlorli ohak, monoxloramin va dixloraminlar kiradi. Bu vositalar qo'llanilganda oksidlanish reaktsiyasidan tashqari, yana zaharlovchi moddalarning xlorlanish reaktsiyalari ro'y beradi, natijada zaharlovchi moddalar neytral holatga o'tadi.

Zaharlovchi moddalar saqlanadigan idishlar tsisterna, bochka va boshqalarga hamda bomba, mina, snaryad, zambarak o'qi va hokazolarning materiallariga nisbatan past reaktsion xususiyatga ega bo'lishi kerak.

ZAHARLOVCHI MODDALARNING TOKSIKOLOGIK TA'SIRI

Sintez qilingan har bir zaharlovchi moddaning samaraliligi, avvalo toksikologik laboratoriyalarda tajriba tariqasida hayvonlarda tekshirib ko'rildi. Faqat hayvonlarda yuqori zamонавиу tekshirishlarga asoslanib o'tkazilgan patofiziologik, biokimyoiy, morfologik, klinik va boshqa tajribalar asosida harbiy teoretik toksikologiya zaharlovchi moddalarning ta'sir qilish mexanizmini, zaharlanishning patogenezini, ziddi-zaharlar bilan davolash yo'llarini va zaharlanishning oldini olish masalalarini o'rganib chiqadi. Bundan tashqari, bu

tajribalarda moddaning hayvonlarga ko'rsatadigan mahalliy va umumiy ta'siri, nafas yo'llari, me'da-ichak yo'li, shikast etmagan teri va shilliq pardalar orqali yaxshi so'riliishi, uning qay darajada zaharliligi belgilanadi.

Zaharlovchi moddalar shunday kimyoviy birikmaki, ular atmosferada turli agregat holatida (bug', gaz, aerozol, suyuq tomchi sifatida) bo'lib, tushgan joyida odamlar va hayvonlarni yoppasiga qirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Zaharlovchi moddalar qator taktik va toksik talablarga javob berishi zarur, chunki zaharlovchi moddaning asosiy xossasini bilish kimyoviy hujum boshlangan taqdirda ko'rildigan himoya tadbirlarini o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirish uchun imkon yaratadi. Zaharlovchi moddalarning toksikligi, ya'ni zaharliligi shu qadar kuchli bo'lishi kerakki, ular organizmga juda oz miqdorda tushganda ham qisqa muddat ichida og'ir va hatto o'lim bilan tugaydigan zaharlanishni keltirib chiqarishi lozim.

Zahar deb, biror yo'l bilan kam miqdorda bo'lsada organizmga tushgan va uning me'yoriy faoliyatini izdan chiqaradigan yoki o'ldiradigan yuqori toksik moddalarga aytildi.

Zaharlanish organizmga zaharli modda ta'siri natijasida undagi me'yoriy fiziologik jarayonlarning buzilishidir. Organizmning zaharlanishi unga tushgan zaharli moddaning miqdoriga, organizmning umumiy holati hamda zaharning organizmga qaysi yo'l bilan tushganiga bog'liq.

Zaharlilik, ya'ni toksiklik deb, kimyoviy zaharlovchi moddalarning organizm hayot faoliyatini izdan chiqarib, zaharlay olishiga aytildi. Zaharlovchi moddaning zaharliligi ularning fizikaviy va kimyoviy xossalari va tuzilishiga bog'liq.

Zaharlanish ta'sirini belgilab beradigan asosiy omillardan biri ularning qanday miqdor yoki kontsentratsiyada organizmga ta'sir ko'rsatishidir. Zahar degan tushunchaning o'zi ham hamisha moddaning dozasi, kontsentratsiyasi bilan bog'langan.

Doza deb, zaharlovchi moddaning ma'lum og'irlik birliklarida ifoda qilinadigan miqdoriga aytildi va mgg'kg bilan ifodalanadi.

Zaharlovchi moddaning **kontsentratsiyasi** deb, biror hajm birligidagi miqdorga aytildi. Kontsentratsiya-litr (mgg'l), (gg'l), (gg'm³), gramm yoki milligrammlarda ifodalanadi. Suvning va havoning qay darajada zaharlanganligi shu tariqa belgilanadi.

Zaharlovchi moddaning maydon birligiga to'g'ri keladigan miqdori **zaharlanish tig'izligi** deb ataladi. Bir kvadrat metrdagi zaharlovchi modda grammilar bilan ifodalanadi (gg'm²).

Dala maydonlar, joylar, yo'llar va texnika buyumlarining zaharlanish darajasi ana shunday ifodalanadi.

Harbiy toksikologiyada zaharlovchi moddalarning zaharlilik darajasini belgilash uchun quyidagi tushunchalardan foydalilanadi:

-yo'l qo'ysa bo'ladigan kontsentratsiyasi va dozasi - bunda zaharlovchi modda uzoq muddat ichida ta'sir qilsa ham odam organizmida hech qanday o'zgarish yuzaga kelmaydi;

-bo'sag'a dozasi yoki kontsentratsiyasi - bunda yengil darajadagi klinik alomathlar paydo bo'ladi, ish qobiliyatini va jangovarlik xususiyati pasayib ketadi;

-o'rtacha safdan chiqaruvchi dozasi va kontsentratsiyasi-odamlar va harbiy xizmatchilarning 50 foizi ish bajarish va jangovar qobiliyatini yo'qotadi va I₅₀, IC₅₀ belgilari bilan ifodalanadi. Bu yerda I - ingliz so'zining birinchi harfi bo'lib, Incapacitating - qobiliyatsiz, qobiliyati yo'q degan ma'noni bildiradi;

-o'ldiradigan o'rtacha doza va kontsentratsiyasi-bunda zaharlangan odamlarning 50 foizi halok bo'ladi va CL₅₀, DL₅₀ lar bilan ifodalanadi;

-absolut o'ldiradigan dozasi yoki kontsentratsiyasi - bunda zaharlanganlarning 90-100 foizi halok bo'ladi va CL₁₀₀, DL₁₀₀ bilan ifodalanadi.

Zaharovchi moddaning organizmda qanday patologik jarayonlar rivojlanishiga olib kelishi ko'p jihatdan organizmda zaharovchi moddaning qanday biotransformatsiyaga uchrashiga bog'liq.

Agar organizmga tushgan zaharovchi modda miqdori ma'lum vaqt ichida kam miqdorda chiqarilsa, unda organizmda asta-sekinlik bilan to'planib boradi. Buning natijasida zaharovchi moddaning ta'sir kuchi va ta'sir muddati oshib boradi, ya'ni kumulyatsiya hosil bo'ladi. Kumulyatsiya ikki xilda bo'ladi:

1.*Moddiy kumulyatsiya* – bunda zaharovchi modda organizmda sof holda to'planib boradi.

2.*Funktsional kumulyatsiya* - zaharovchi modda organizmda ta'sir kuchini to'plab boradi.

Zaharovchi modda to'qimalarda to'planib borgani bilan ularda qaytmas o'zgarishlarni keltirib chiqarmaydi, lekin uning funktsiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

SHuning uchun organizmga tushadigan zaharovchi moddalarning dozasi va kontsentratsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zaharovchi moddalarning organizmga tushish yo'llari

Zaharovchi moddalar organizmga turli yo'llar bilan, jumladan nafas yo'llari, me'da-ichak, teri, shilliq pardalari hamda jarohatlar orqali o'tishi mumkin (9-rasm).

Zaharovchi moddalar qo'llash usuliga, ularning fizikaviy va kimyoviy, toksikologik xossalariiga qarab ta'sir qiladi.

Bu moddalarning ba'zilari organizmga nafas yo'llari orqali tushsa, ba'zilari boshqa yo'llar bilan tushadi.

Zaharovchi moddalar ko'pincha bug' va aerozol holida nafas olish yo'llariga tushadi. Havo yo'llariga tushgan zaharovchi modda shilliq pardalarda to'xtab qolishi natijasida qisman o'pka al'veolalari orqali qonga so'rildi. Agar o'pka al'veolalari yoyib qo'yilsa, uning yuzasi taxminan 90-100 m² yuzaga tarqaladi, shuning uchun u nafas orqali zaharlanish klinikasida birinchi o'rinni egallaydi, ya'ni zaharlanish klinikasi tezda rivojlanadi.

Ba'zi bir zaharovchi moddalar organizmga tushgach nafas olish yo'llari shilliq pardalariga va o'pka to'qimalaridagi intraretseptorlarga mahalliy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Reflektor yo'l bilan ta'sir qilganda organizmga umumiyligi ta'sir qilishi kuzatiladi. O'pka sezuvchi asab oxirlariga juda boy refleksogen zona bo'lib hisoblanadi.

Zaharovchi moddalar bilan nafas olish yo'llari orqali zaharlanish **ingalyatsion zaharlanish** deb ataladi, bu zaharlanish juda ham xavfli hisoblanadi.

Nafas olish yo'llarini zaharovchi moddalardan saqlash uchun himoyalovchi vositalardan- gazniqoblardan foydalaniladi.

Zaharovchi moddalarning organizmga **me'da-ichak yo'li** orqali tushishi ham katta ahamiyatga ega. Nafas olinadigan havo bilan kirib, shilliq pardalarda ushlanib qolgan zaharovchi moddalar og'iz bo'shlig'iga tushganda so'lak bilan aralashadi va yutib yuboriladi. Me'da-ichak yo'li orqali zaharlanish asosan bilmasdan zaharlangan suv yoki oziq - ovqat mahsulotlari iste'mol qilinganda yuzaga keladi.

Me'da-ichak yo'liga tushgan zaharovchi moddalar asosan ichakda so'rildi.

Lipidlarda yaxshi yeriydigan zaharovchi moddalar og'iz va me'da-shilliq pardasiga ham yaxshi so'rildi. Ichak shilliq pardasidan qon tarkibiga lipidlarda yaxshi yeriydigan va yerimaydigan zaharovchi moddalarning sust diffuziyalanish yoki oson diffuziyalanish jarayoni tufayli so'riliishi kuzatiladi. **Suvda yaxshi yeriydigan zaharovchi moddalar yo'g'on ichakda so'rildi.**



Me'da-ichak yo'lidan so'rilib o'tgan zaharovchi moddalar qon va limfa tomirlariga tushadi va butun organizm va to'qimalarga tarqaladi. Zaharovchi moddalar katta qon aylanish doirasiga tushishidan oldin jigarga keladi va bu yerda ularning bir qismi jigarning mikrosomalfermentlari ta'sirida zararsizlantiriladi. Ichakdan qonga so'rilmagan zaharovchi moddalar axlat bilan tashqariga chiqarib tashlanadi.

Zaharovchi moddalarning organizmga tushadigan yana bir eng muhim yo'li **teri qavatidir**. O'tishning uch yo'li ma'lum: epidermis orqali, jun follikulalari va yog' bezlarining chiqaruvchi yo'llari orqali. Lipidlarda yaxshi yeriydigan zaharovchi moddalar (fosfororganik zaharovchi moddalar, iprit, lyuizit va boshqalar) teri orqali organizmga tezda so'riliish xususiyatiga ega. Odamning terisi

qizarib ancha terlab turgan holda zaharlovchi moddalarning so'riliishi ancha osonlashadi.

Bundan tashqari, teri qavati orqali organizmga tushgan zaharlovchi moddalarning toksik ta'sir ko'rsatishi uchun: zaharlovchi moddalarning qanchalik tez so'riluvchanligi, suvda yeruvchanligi ham muhim o'rinni tutadi. Teri orqali o'tgan zaharlovchi moddalar jigarga tushmasdan, katta qon aylanish doirasiga tushishi mumkin. Teri qavatlarini zaharlovchi moddalardan himoyalash uchun maxsus himoya vositalari qo'llaniladi.

Bundan tashqari, zaharlovchi moddalar organizmga teri qavatidagi yaralar va yaralangan yuzalar orqali tushishi mumkin. Qon oqib turuvchi yaralar bo'lganda zaharlanish tezda yuzaga chiqmaydi, chunki yaralar orqali oqib chiqayotgan qon zaharlovchi moddalarni qisman yuvib ketadi. Agar yaralangan kishi yana zaharlovchi moddalar yoki radiofaol moddalardan zaharlangan bo'lsa, ular **kombinatsiyalangan zaharlanganlar** deb ataladi.

Zaharlanganlarni davolash va zaharlanishning oldini olish

Dushman tomonidan ommaviy qirg'in qurollari qo'llash xavfi paydo bo'lganda yoki qo'llanilganda undan saqlanishning asosiy tadbirdi quyidagilardan iborat:

-shaxsiy tarkibga dushman tomonidan ommaviy shikast yetkazuvchi qurollar qo'llashga tayyorlanganligi o'z vaqtida fosh qilinishi va uning hujum qilish xavfi borligi ma'lum qilinadi. Bu tadbirdi amalga oshirishdan maqsad hujum vositalari tashuvchi samolyotlar, raketalar, maxsus vositalar va boshqalarni o'z vaqtida razvedka qilib yo'qotishdir. Bu tadbirdilar harbiy qo'mondonlik tomonidan amalga oshiriladi;

-harbiy qismlar egallagan vaziyatni, shaharlarni hamda aholi yashaydigan boshqa joylarni ommaviy shikast yetkazuvchi qurollardan saqlash uchun muhandislik (fortifikatsiya) tadbirdi amalga oshiriladi;

-uzluksiz ravishda radiatsiya, kimyoviy va biologik holat joriy etiladi;

-ommaviy qurollar ta'siridan saqlanishga harakat qilinadi;

-zaharlangan kishilarga kimyoviy zaharlanish o'chog'ida va davolash evakuatsiya bosqichlarida tibbiyot yordamini ko'rsatish ishlari uyushtiriladi va o'tkaziladi;

-dushmanning ommaviy shikast yetkazuvchi qurollar qo'llash oqibatlari o'z vaqtida yo'qotiladi.

Kimyoviy zaharlanish o'chog'ida zaharlovchi moddalar bilan zaharlanganda odamlarga zudlik bilan dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish kerak.

Dastlabki tibbiy yordam harbiy xizmatchilarning shaxsiy tibbiy qutichasi (AI-2), shaxsiy paketlar (IPP-8, IPP-9, IPP-10) yordamida o'ziga va o'zaro, shuningdek sanitarlari va sanitari instruktorlar tomonidan o'tkaziladi, fuqarolar mudofaasi bo'yicha sanitariya postlari va sanitariya drujinalari tomonidan o'tkaziladi. Keyinchalik, shifokorgacha bo'lgan yordam batalbon tibbiy punktida (BTP), malakali tibbiy yordam alohida tibbiy otryad (ATO), harbiy garnizon

tibbiy gospitallari (GTG) va markaziy harbiy klinik gospitali (MXKG) da olib boriladi.

Zaharlangan odamlarga umumiyl davolash ishlari o'tkazilishiga qarab etiologik, patogenetik, simptomatik va maxsus davolash ishlari o'tkaziladi.

Etiologik davolash bu organizmda kasallik yoki zaharlanishni keltirib chiqaruvchi etiologik omillarning oldini olish yoki ularni yo'qotishga qaratilgan bo'ladi va quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- zudlik bilan nafas olish yo'llari va terini himoyalovchi vositalar kiyiladi;

- teriga tushgan zaharlovchi moddalarni tezlik bilan degazatsiya qilish zarur, zaharlangan ust - bosh iloji bo'lsa almashtiriladi;

- me'da-ichaklar orqali tushgan zaharlovchi moddalarni tezlik bilan me'dadan chiqarib tashlash (me'dani zond bilan yuvish), adsorbentlar (faollangan ko'mir) berish zarur;

- zaharlovchi moddalarning ziddi-zahari qo'llaniladi;

- organizmga tushgan zaharlovchi moddalarni zaharsiz holga keltirish uchun boshqa vosita va usullarni (jadallashtirilgan diurez, gemodializ, peritoneal dializ, gemosorbtсиya, limfosorbtсиya, qon alishtirish va boshqa usullarni) qo'llash. SHuni esda tutish kerakki, agarda zaharlovchi modda organizmdan to'liq chiqarilmagan bo'lsa yoki uning organizmga kirishi to'xtatilmagan bo'lsa, olib borilayotgan davolash ishlarining nafi bo'lmaydi.

Mavzu: Gidrotexnik inshoatlarida kelib chiqqan avariyalarda qutqaruv ishlarini olib borishni xususiyatlari (2 soat)

O'quv savollari:

1. Gidrotexnik (gidrodinamik) halokat.
2. Gidrotexnik inshootlardagi avariyalarning ko'lami va xarakteriga ko'ra oqibatlari.
3. Suv bosish xavfi bor hududlarda profilaktik choralarining olib borilishi.

Suv omborlaridagi, daryolardagi, kanallardagi gidroTexnika inshootlarning buzilishi, tog' ko'llaridagi suv satxini o'zgarishi, ko'chkilar gidroTexnik xalokatlar va avariylar natijasida suv bosishi sodir bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda odamlar qurbon bo'lishi, sanoat va qishloq xujaligi ob'ektlarining ishi izdan chiqishi, suv bosgan hududdagi aholining turmush faoliyati buzilishi extimol tutiladi. Bunday xollarda aholi shoshilinch ko'chiriladi. GidroTexnik (gidrodinamik) xalokat, bu gidroTexnika inshoot yoki uning biror qemi ishdan chqishi, buzilishi, natijada boshqarib bo'lmaydigan juda katta miqdordagi suv massasining bostirib kelishi bilan bog'lik favqulodda vaziyatlardir.

Respublikamizda muayyan sharoitda favqulodda vaziyatlar sodir etilishi mumkin bo'lgan gidrodinamik xavfli ob'ektlar juda ko'p bo'lib, ular aholi va hudud uchun xavf- xatar manbai xisoblanadi.

Gidrodinamik xavfli ob'ektlar - bu suv oqimi buylab o'zidan oldingi va o'zidan keyingi suv satxlarini muayyan farq tutib turadigan inshootdir.

Er yuzasidagi geologik jarayonlar asosan yerning ichki kuchlari va tashqi tabiiy omillar ta'sirida sodir buladi. Bundan tashkari shu kabi xodisalar insonning xujalik va kuriish faoliyati ta'sirida ham vujudga kelishi mumkin.

GidroTexnik inshootlardagi avariyalarda uning ko'lami va xaraktariga qarab kuyidagi holatlar yuzaga kelishi mumkin:

- tugon buzilgandagi toshkin- suvning bir kismi tugondan o'tib ketadi.
- suv bosishi- hududning asta sekin suv ostida qolishi.
- gidroTexnik xavfli inshootdagи favqulodda vaziyatlarning shikastlovchi omillari- to'g'oni urib ketgan suv tulkinining balandligi (tezligi 3-100 km/soatgacha; tulkinning etib kelish vakti va suv bosish chegaralari)

Suv bosish zonasida gidroTexnik inshootiga tutash hududlarning suv tagida qolishi mumkin bo'lgan qismi. Bu holatda katta hududlarni suv bosadi. Suv bosgan hududda qutqaruv ishlari- bu suv bosgan hududda fuqaro muxofazasining barcha boshqaruv punktlarida yukori tayyorgarlik holatiga o'tkaziladi, navbatchilik urnatiladi. Aholi va zaruriy boshka tashkilotlarga avariya xakida xabar yuboriladi. Razvedka va nazorat ishlari o'tkaziladi, odamlarni kidirish, ularni suzuvchi vositalarga chikarish va xavfsiz joyga olib borish, uy- joy bilan ta'minlash, shikastlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish kabi ishlardan iborat. Toshkin bosilgach zararlangan aloka va elektr tarmoqlari tiklanadi, suv yuvib ketgan yullar remont kilinadi va buzilgan ko'priklar tuzatiladi.

Suv bosish xavfi bor hududlarda profilaktik choralarining olib borilishi favqulodda vaziyatlar zararini talofatini kamaytirishga xizmat qiladi.

Suv bosish xavfi extimoli bo'lgan joylarda oldindan evakuatsiya qilish yullari aniklanadi. Suv bosgan paytda kecha-kunduz navbatchilik qilinadi, suvning vositalari tayyor xolga keltiriladi. Suv toshqini xavfi bo'lganda aholini ximoya qilish uchun fuqaro muxofazasi kuch va vositalari jalb kilinadi. Avariya qutqaruv ishlarini olib borish tartibi iktisodiyot ob'ektlarining favqulodda vaziyatlar planida ko'rsatilganidek amalga oshiriladi.

Mavzu: Suv ostida qutqaruv ishlarini tashkil qilish (2 soat)

O'quv savollari:

- 1. Suvda qutqaruv ishlarini olib borishni tashkil etish.**
- 2. G'ovvoslik anjomlarini tuzilishi va ishlatish qoidalari.**
- 3. Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik olib borishning usullari**

G'avvosni sovuqqotishi suvni xarorati, suv ostida ishslash vaqtiga kiyim /gidrokostyum/ turiga bog'liq.

Ma'lumki, me'yorda inson tana xarorati 36–37 gradusni tashqil qiladi. Organizmdagi barcha protsess va modda almashuvi raaktsiyalar shu xarorat diapazonida bo'lib utadi. Barcha ichki va tashqi uzgarishlar turli salbiy xolatlarga olib kelishi mumkin. Qutqaruvchilar nafaqat suvga tushganda sovqatishlari mumkin, balki g'avvoslik ishlarni ta'minlaydigan boshqa qutqaruvchilar, qayiqda ishlayotgan xodimlar xam past xarorat va shamollardan aziyat chekishi mumkin. Atrof muxit past xarorratlari darajasiga qarab oddiy sovuq qotishdan to butunlay tanani muzlab qolish xolatigacha olib kelishi mumkin. Organizmni xarorati 5 gradusdan past bulsa umumiyligi tana sovqatishi xolatiga uchraydi va turli salbiy uzgarishlar paydo buladi. Inson sovuqda qolsa qalin yoki qo'p qatlamlari qiyim qiyishi, ochiq joydan panaga /uy, palatka, g'or/ kirishi, issiq ichimliklar yoki ovqat istimol qilib uzini asraydi.

Belgilari. Organizm xam o'z yuliga tanadagi issiq xaroratni meyorda saqlab qolishga xarakat qiladi. Xususan nafas olishi sekinlashadi va yuzaki buladi. Teridagi ter ishlab chiqaruvchi bezlar uz ishlarini tuxtatadi, teri kavaklari berkitiladi, tuklari kutariladi, teri osti mayda qon tomirlarda qon aynalishi kamayadi va shu sababli teri oq rang tusini oladi. Bundan tashqari yurak urishi nisbatan kamayib, modda almashuvi sekinlashib boradi va shu bilan kislородга ixtiyoj xam kamayib boradi. Teri osti mushaklar beixtiyoran titraydi. Tovushi pasayib, xirrilaydi.

Tanani sovuq qotishi davom etaversa, qon bosimi pasayib, bosh miya qon tomirlarida qon aynalishi sekinlashib boradi, miya kislород bilan ta'minlanishi kamayadi. Inson, uzi bilmagan xolda, xarakatlari sustlashib, uyquga ketishi va shu sababli past xaroratdan xaloq bulishi mumkin.

Tablitsa 4. Suv xaroratiga qarab insondagi uzgarishlar

Suv xarorati, gradus,	Xushidan ketish vaqtி	Xaloq bulish vaqtி
------------------------------	------------------------------	---------------------------

S		
0	10-15 daqqa	15-50 daqqa
10	25-50 daqqa	1-1,5 soat
15	2-3 soat	4-5 soat
20	4-6 soat	8-10

Birinchi yordam. G'avvosni suvdan chiqarib, pana joyga olib utib anjom va kiyimlari yechiladi. Qutqaruvchilar shuni esida tutish kerakki, pana joy bulmasa ham, xul kiyimlarni barchasi yechilib, tanasi quruq sochiq yoki boshqa mato bilan yaxshilab ishqlab artiladi. Sung boshqa, quruq kiyim kiyiladi. Issik shirin /qora/ choy yoki kahfa beriladi. Imkoniyatdan kelib chiqqan xolda bush plastik idishlarga issiq suv qo'yib, oyog'ini orosiga, buyin soxasi va qultiqlar ostiga kuyilib, odealo bilan o'rab quyiladi. Suvni olovda isitiladi yoki avtomashina radiatoridan olinadi. Tinchlik xolati beriladi. Axvolini inobatga olib, tibbiyot maskaniga yuboriladi.

Jadval 5. Suv xaroratiga qarab, g'avvosni maxsus issik gidrokostyumda ishlash va dam olish vaqtি

	Suv xarorati, gradus /TSel'ssiy/					
	1–3	4–6	7–9	10–12	13–15	16–18
SHung'ish vaqtি, soat	1	1,5	2	3,5	4	5
Qayta shung'ish uchun dam olish vaqtি	Kamida 4 soat	Kamida 3 soat			Bir sutkada bir marotaba	

Jadval 6. Suv xaroratiga qarab, g'avvosni oddiy gidrokostyumda ishlash va dam olish vaqtি

	Suv xarorati, gradus S				
	28	25	22	19	18 va undan past bo'lsa
SHung'ish vaqtি, soat	4	2	1	0,5	Ruxsat etilmaydi
Qayta shung'ish uchun dam olish vaqtি	0,5	1	1	1,5	

Agar g'avvos suvg'a shung'idan sung sovuqdan titrashi boshlasa, darxol shung'ishni tuxtabit, chiqib ketadi.

G'avvosni issib ketishi. Atrof muxitni xarrorati yuqori bulsa, kup vaqt maxsus kiyim kiyib, suvga tushmasdan qirg'oqda, soyasi yuq joyda tursa, ichimlik suvlari yetarli bulmasa, xamda maxsus kiyimni notug'ri tanlab kiyib xarakat qilsa, tanasi qizib ketishi mumkin.

Belgilari terisi qizarib ketsa, ko'p terlasa, nafas olishi tez va chuqur, yurak urishi xam nisbatan tez bulishi, bosh og'rishi, aylanishi kuzi oldi tinishi, tana xarorati 38 gradusdan yuqori bulishi mumkin. Agar vaqtida yordam berilmasa, rangi oqarib xushidan ketishi mumkin.

Birinchi yordam. G'avvosni suvga shung'ishdan oldin uzini yomon xis qilsa, xususan kiyinish paytida tanasi qizib ketsa – shung'ishdan chetlatiladi va salqin joyda dam beriladi.

Suvdan chiqqan g'avvosda yuqorida kursatilgan belgilarni bo'lsa, maxsus anjom va kiyimlardan ozod qilib, salqin joyga olib boriladi. Xushini yuqotgan bulsa, yotqizilib, nashatir spirti /ammiak/ xidlatiladi, oyoqlari tanaga nisbatan kutarib quyiladi. Tanani sovuq suv yoki tibbiyot spirti bilan artiladi. Qultiq osti, boshi va tanaga sovuq suvga botirilgan sochiq yoki boshqa mato bilan urab quyiladi. Muzli xalta, polietilen paketga qor solib boshiga quyiladi. Boshqa sochiq, mato, karton, jurnal, faner parchasi bilan yelpib turiladi. Xushida bo'lsa – sovuq ichimliklar beriladi. Imkoniyatdan kelib chiqib, konditsioner bor xonada dam olishga yotqiziladi.

Oldini olish choralarini. G'avvoslik ishlari olib boriladigan joylarda qutqaruvchilar guruh rahbarlari isib ketish choralarini kuradi. G'avvoslar quyoshda turmasligi, bosh kiyimisz yurmasliglari, yoz kunlarida imkoniyatdan kelib chiqib maxsus, soyasi bor joylarda bulishlari, salqin ichimliklar bilan ta'minlanishi choralarini kuradi.

CHiqindi gazlardan zaxarlanish. Ma'lumki, respublikamiz g'avoslari suvga shungish paytida nafas olish uchun asosan ballonlarga siqilgan havo bilan foydalananadilar. Ballonlarga siqilgan havoni elektr yoki benzinli dvigatellar bilan ishlaydigan kompressor yordamida atrofdagi xavo bilan tuldiradilar. Agar ushbu jarayonda xam texnik xavfsizlik talablariga rioxal qilinmasa, noxush xolatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu talablarga quydagilar kiradi:

1. Kompressorni ishlatishdan oldin, texnik ko'rikdan utkaziladi. Atrofdagi xavoni tortish uchun, kompressorga qushimcha gorizontal yunalishdagi naycha tsurnatiladi.

2. Kompressorni toza xavo bor joylarga utratiladi. Avtomashinalar ko'p yuradigan yullar oldidan, qozonxonalar va turli chiqindi, xashak va g'azonlar yoqiladigan xududlardan uzoqlashtiriladi.

3. Yopiq xonalarda /garaj, omborxona/ ham ballonlar xavo bilan tuldirilmaydi.

4. Kompressorni xavo tortish naychasini shamol keladigan tarafga karab urnatiladi. Aks xolda benzinli kompressor dvigatelidan chiqqan chiqindi gazlar xavo tortish naychasidan ballonga yuboriladi.

Yuqoridagi talablarni bajarilishiga ballonga barcha noxush xidlar, chiqindi gaz va tutunlar tuldirilishi oldi olinadi.

Turli gazlardan zaxarlanishlardan eng xavflisi is gazi /uglerod oksidi SO/xisoblanadi. Is gazi asosan kumir, utin chug' bilan yoqiladigan qurilmalarda /pechka, tancha, tandir/ kislород yetishmaganligi uchun tuliq yonmas sharoitida paydo buladi. Is gazi rangi va xidi yuq. Lekin organizmda qonni qizil tanachalari bilan muqim bog'lanib, kislородни bog'lanishiga tusiq bo'lib, kislород yetishmovchiliga olib keladi.

Belgilar. Is gazidan zaxarlanganda bosh ogrishi, aylanishi, siqilishi, kungli aynishi, qayt qilishi, ko'z oldi tinishi kuzatiladi. Bundan tashkari terisini rangi qizil, umumiyl xolsizlanish, qo'l va oyog'lar qaltirashlari, xushini yuqotish belgilari mumkin. Og'ir zaxarlanishlarda nafas olishni va yurak urishi tuxtashi mumkin.

Birinchi yordam bemorni axvoliga qarab ko'rsatiladi. G'avvosni zaxarlanishi ballondagi xavodan nafas olishni boshlashi bilan kuzatiladi. Ko'pincha suv ostiga shung'ishga ulgurmasdanoq yoki shung'igandan sung birinchi daqiqalarida zaxarlanish alomatlari paydo buladi va g'avvos suvdan uzi chiqib ketadi yoki yuqoridagi boshqa qutqaruvchilarga radioaloqa, xamda signalli arqon yordamida xabar berishga ulguradi.

Yordam berishni qutqaruvchilar maxsus anjomlarni yechishidan, toza havo bilan nafas olishni ta'minlashi, xushidan ketgan bulsa nashatir spirtini xidlatishi, nafas olishi va yurak urishi tuxtagan bo'lsa darxol reanimatsiya usullarini qullashlari kerak. Imkoniyat bo'lsa toza kislород bilan nafas oldirish, g'avvosni umumiyl axvolida tez yaxshi uzgarishlarga olib keladi. Sung g'avvosni tinchlatirib yotqizib, odealo bilan urab. axvolini inobatga olib tibbiyot makaniga yuboriladi.

Oldini olish chorralari asosan ballonni tuldirish jarayonida xavfsizlik talablariga rioya qilishlari, kompressorni texnik nosozliklarini vaqtida bartaraf etishlari, filitr xolatlarini nazorat qilishlari kerak. Yangi yoki texnik ta'mirlangan kompressorlardan foydalanishdan oldin, ular chikaradigan xavoni taxlilini utkazidi. Havosi tuldirilgan ballonlari saqlash muddati bir oydan oshmasligi kerak.

Portlash tulqini ta'siridan kelib chiqadigan xolatlar. Suv yuzasi va ostida utkazilagan portlash ishlari natijasida tulqin xosil bo'ladi va atrofga xalqasimon shaklda tarqalib, travmatik ta'sir qiladi. Portlash epitsentiriga qancha masofa yaqin bulsa, shuncha tulqin tasiri kuchli buladi. Ma'lumki portlash tulqini fizika qonunlariga buy sunib, xuddi ovoz tulkini kabi tarqaladi. Suv ostida ovoz tulqini tarqashi xavodan 4-5 barobar kupdir. portlash tulkini ta'sir qilish radiusida suv ostida g'avvos bulsa, tulqin unga saalbiy ta'sir qiladi. SHuni ta'kidlash kerakki, tulqin tarqash paytida g'avvosni tana xolati axamiyatga ega. Agar g'avvos tulqinga oldi bilan turgan bo'lsa yoki qorni bilan pastga qarab suzgan bulsa, shikastlanish darajasi yuqori buladi. Yuqoriga karab suzishda shikastlanish nisbatan kamroq bulishi mumkin.

Belgilar. Qulolqlar shang'illashi, eshitish qobiliyatini pasayishi, burun va qulokdan qon ketishi, kurak soxasida og'riqlar, karaxtlik kuzatiladi. Bundan tashqari g'avvos atrofga tug'ri baho bermasdan, ongi pasayishi va orientatsiyani yuqotishi mumkin. Og'ir xolatlarda tulqin ta'siri natijasida organizmni ichki a'zolari shikastlanishi mukin.

Birinchi yordam g'avvosni suvdan olib chiqib, umumiyl axvoliga qarab kursatiladi. yengil xolatlarda qulop va burundan qon ketishni tuxtatish chorralari

bilan chegaralanishi mumkin. Boshqa og'ir belgilari bo'lsa, havosni tibbiyot maskaniga yuboriladi.

Oldini olish choralar. Portlash ishlari olib borilayotgan xududda g'avvoslar suv ostiga shungishga yul quyilmaydi va havfsiz masofada joylashiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib quydagi xulosalar chiqarishi mumkin:

1. G'avvoslik ishlari boshqa kasblardan keskin farq qilib, doimo ma'suliyat va ja'surlikni ta'lab qiladi.
2. G'avvos uz ustida doimo ishlashni, jismonan va ruhan chiniqish kerak.
3. Suv inson uchun yod bo'lib, ko'p xatarlarni uzida saqlashini g'avvoslar esidan chiqarmasligi lozim.
4. G'archa g'avvoslik ishlarni xavfsizlik talablariga qatting qilingan xolda olib borishlari kerak.
5. Sog'lig xolatiga yuzaki qaramasdan, vaqtida tibbiy kuriklardan utishlari, kerak bulsa davolanishni inkor kilmasligi kerak.
6. SHoshqaloklik va tavakkalchilik g'avvoslik ishlarida kungilsiz axvollarga olib kelishi
- 7.Birinchi yordam usullarini bilish, vaqtida ularni tug'ri qullash nafaqat atrofdagilarni og'ir axvolga tushushni, balki xayotini saqlab qolish mumkin.

So'zimiz yakunida respublikamizni barcha g'avvoslarga, suvda qutqaruva guruh vakillargi sixat-salomatlik, og'ir ishlarida katta mahorat va omad, oila a'zolariga esa tichlik-xotirjamlikni tilab qolamiz.

Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik olib borishning usullari

Fuqaro muxofazasi soxasida olib boriladigan tadbirdarda ishtirok etuvchilar jismonan baquvvat, ma'naviy barkamol, ruxan tetik bo'lishlari zarur. Ana shundagina fuqaro muxofazasi ishlari aniq, puxta bajariladi, samarali bo'ladi. Buning uchun fuqaro muxofazasi bilan bog'liq faoliyatining barcha tomonlari, jumladan FVDG tizimlarining shaxsiy tarkibi va aholining favqulodda vaziyatlarda harakat pushnina tayyorligi takomillashgan takdirdagina samarali buladi. Ushbu tayyorgarlikning muxmm yunalishlaridan biri ma'naviy-ruxiy tayyorgarlik xisoblanadi.

Favqulodda vaziyatlarda axolini harakat qilishga ma'naviy tayyorlash.

Xarakat ishtirokchilarini fuqaro muxofazasiga oid vazifalarni bajarish mamlakat, xalk oldidagi burch ekanligiga ishonchni tarbiyalash, o'z vazifalarini vijdonan bajarishga, murakkab vaziyatlardagi kiyinchiliklarii engib o'tishga o'zini tayyorlash zarurligini tushunish, ruxiy qiyinchiliklarga chidash ruxida tarbiyalashdir.

Ruxiy tayyorgarlik - odamlarda ruxan chidamlilikni shakllantirish yoki qo'yilgan vazifalarni bajarish, xavfli vaziyatlarda fidokorona xarakat qilish qobiliyatini kuchaytirishdagi xislatlarini xosil qilish demakdir.

Ma'naviy va ruxiy tayyorgarlik bir-biri bilan uzviy bog'langan. Bu odamlarda yukori ta'naviy-ruxiy sifatlarni shakillashtirishning yagona jarayonidir.

SHaxsiy tarkibning tayyorgarligi tarbiya va o'qitish jarayonida, uning barcha shakl va usullarini qo'llagan holda amalga oshiriladi. Uning muxim vazifalaridan biri shaxsiy tarkibga va tuzilmalar sardorlariga ruxiy chinikish, irodasini

mustaxkamlashga bo'lgan intilishni singdirishdan iborat. SHaxsiy tarkib bunday chikish fuqaro muxofazasi bo'yicha vazifalarni muvaffaqiyatlama amalga oshirishda ko'makdosh bo'lishini tushunib etishi zarur.

Ruxiy tayyorgarlik, ayniksa xavfli vaziyatlarda harakat qilish uchun insonning ruxiyatini bevosita chiniqtirish fuqaro muxofazasi vazifalarini amalda bajarish chog'ida, o'qitish jarayonida, asosan ikki shaklda olib boriladi:

1. Maxsus jixozlangan ukuv shaxarchalarida, ruxiy chinikish maydonchalarida mashg'ulotdar, trenirovkalar olib borish.
2. Barcha mashg'ulotlarda, ayniksa, fuqaro muxofazasi o'kuv mashqlarda sharoitga maksimal yakinlashtirilgan sharoit yaratish.



Rasm. Insonning xavflarga bo'lgan munosabati


Buning uchun fuqaro muxofazasining zamонавиёй о'кув moddiy-Texnik bazasini yaratish, uni doimo foydalanishga tayyor xolda saklash, o'tkazilayotgan o'kuv mashg'ulotlari va mashklarida samarali qo'llash lozim.

Ma'naviy-ruxiy tayyorgarlikni amalga oshirishdagi shakl va usullarini maxalliy sharoitni xisobga olgan xolda, takomillashtirib borish kerak. Ma'naviy-ruxiy tayyorgarlikda, ketma-ketlik tamoyili juda muxim o'rinn tutadi: oddiydan murakkabga, biroz murakkabdan - ko'proq murakkabga.

Xavf-xatar, xalokat, inqiroz so'zlarini bizni xar qadamda ta'kib etadi. Gazeta-jurnallar saxifalari, televizor ekrani orkali yangi va daxshatli vokealar, xodisalar, jinoyat va favqulodda vaziyatlar xaqidagi axborotlar berib boriladi. Xar bir inson bunday sharoitda o'zini yordamga muxtoj, ximoyasiz xis qila boshlaydi. Xavf-xatar xar qadamda: uyda, magazinda, teatrda, va boshqa xaet sharoitlarda yuz beradigandek tuyuladi. Inson o'zini to'la muxofazalangan xolda xis kiladigan biror joy yo'kka uxshaydi. Bunda insonning uyqusi va ishtaxasi yo'koladi, oshkozon yarasi paydo bo'ladi, kon bosimi ko'tariladi, tinchligi ketadi. Bunday xolatda xar bir inson salbiy vokealar, xodisalarda harakat qilishga o'zini oldindan tayerlashi, o'zini va atrofdagilarni xavf xatardan asrab qolishga yordam beradi.

Buning uchun qo'rqish va xavfli xodisani kutishga chek qo'yish, xavf-xatar bilan uchrashuvga tayyorgarlikni boshlash lozim. Bu xavfsizlik psixologiyasiga kuyilgan birinchi qadam bo'ladi. Ikkinci qadam - xavf-xatar bilan uchrashuvga tayyorlanishni o'rganish. Barcha xavf-xatarga tayyorlanish mumkin emas,

mantiqan ham to'g'ri kelmaydi. Potensial xavfni ko'ra bilish, uni chetlab o'tishni o'rganish va xaqiqatdan ham ushbu xavf-xatarga to'qnash kelib qolinsa, nima qilish kerakligini bilish muximdir. Misollarda turli vaziyatlardagi xavf xatardan qutilish choralar keltirilgan.



Zilziladan sung:

